

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA  
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**KREDIT-IQTISOD FAKULTETI**

**“BANK ISHI” KAFEDRASI**

**XURSANOVA GULZODA**

**“TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MIKROKREDITLAR  
BERISHNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI”**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

5230700-“Bank ishi” bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi

**“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”**

**Kredit-iqtisod fakulteti  
dekani**

\_\_\_\_\_ i.f.n., dots. Saidov R.

“ \_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2017 y.

**“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”**

**“Bank ishi” kafedrası  
mudiri**

\_\_\_\_\_ i.f.n., dots. Saidov D.A.

“ \_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2017 y.

**Bitiruvchi:**

5230700 – “Bank ishi” ta‘lim yo‘nalishi 4-kurs  
talabasi

Xursanova G.

\_\_\_\_\_

**Ilmiy rahbar:**

k.o‘q., Alimardonov I. \_\_\_\_\_

**TOSHKENT - 2017**

<b>MUNDARIJA</b>		betlar
<b>KIRISH.....</b>		<b>3</b>
<b>1-BOB TIJORAT BANKLARIDA MIKROKREDITLASHNI TASHKIL ETISHNING ASOSLARI VA UNING MOHIYATI.....</b>		<b>7</b>
1.1. O`zbekiston Respublikasi mikromoliyaviy xizmatlar amaliyotining iqtisodiy va huquqiy asoslari.....		7
1.2. Mikrokreditning iqtisodiyotdagi roli.....		22
1-bob bo'yicha xulosa.....		25
<b>2-BOB MIKROKREDITLAR BERISHNING TARTIBI VA TIJORAT BANKLARIDA MIKROKREDITLASH AMALIYOTI TAHLILI.....</b>		<b>27</b>
2.1. Tijorat banklari tomonidan mikrokreditlar berish tartibi.....		27
2.2. Tijorat banklari tomonidan mikrokreditlar berishning amaliy holati tahlili.....		36
2-bob bo'yicha xulosa.....		43
<b>3-BOB TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MIKROKREDITLASHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....</b>		<b>45</b>
3.1. Tijorat banklari tomonidan mikrokreditlash bilan bog'liq muammolar .....		45
3.2. Tijorat banklari tomonidan mikrokreditlashni takomillashtirish .....		48
3-bob bo'yicha xulosa.....		53
<b>XULOSA VA TAKLIFLAR.....</b>		<b>55</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI .....</b>		<b>58</b>

## KIRISH

**Bitiruv malaklaviy ishi mavzusining dolzarbligi.** O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni ko'pgina muhim iqtisodiy islohotlarning tarkibiy qismi sifatida bank tizimida ham chuqur o'zgarishlarni amalga oshirilishini va iqtisodiyotni pul-kredit vositalari orqali tartibga solishning bir butun mexanizmini yaratilishini taqozo etmoqda.

Bu eng avvalambor, kichik-biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi turmush darajasini o'stirib borish, kam daromadli aholi qatlamini kredit ajratmalar orqali tadbirkorlik bilan shugullanishga yordam berish, qishloq joylarda tadbirkorlar safini kengaytirish, ish bilan bandlikni ta'minlash kabi maqsadlarga erishish natijasidir.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida “Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 7,8 foizga o'sdi, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 6,6 foizga, qurilish-pudrat ishlari-12,5 foizga, foizga, chakana savdo aylanmasi – 14,4 foizga, xizmatlar-12,5 foizga oshdi”<sup>1</sup> deb ta'kidlab o'tdi.

Mamlakatimizda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlanishiga katta ahamiyat berilayotganligidan dalolat beradi.

Mamlakatimiz prezidenti “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik tuzilmalarining faoliyatiga davlat, nazorat va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan noqonuniy aralashuvlarning qat'iy oldini olish kerak”<sup>2</sup>ligini qat'iy belgilab berdi.

---

<sup>1</sup> “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan ma'ruzasini”.-Bozor, pul va kredit jurnali. №1 2017-yil 18-yanvar.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Shavkat Mirziyoyevning 7-fevral 2017-yildagi PF-4947-sonli “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni.

Shu sababli kichik biznesni rivojlantirishda bank kreditlarining ham rolini oshirish talab qilinadi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli va o'rniga tobora mustahkamlanib borayotganining o'zi iqtisodiyotimizning tarkibida bo'layotgan ijobiy o'zgarishlardan dalolat beradi. Xususiy mulk va tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi 2016 yilda 32 mingga yaqin yoki 2015 yilga nisbatan 18 foizga ko'p kichik biznes sub'yektlari tashkil qilinishiga turtki bo'ldi. Kichik biznesning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 56,9 foizgacha, sanoatda esa 45 foizgacha oshdi. Ijobiy tarkibiy o'zgarishlar va iqtisodiyotning yuqori o'sish sur'atlari tufayli aholining real daromadlari 11 foizga ko'tarildi. 726 ming nafarga yaqin aholining, shu jumladan, 438,5 ming kollej bitiruvchisining bandligi ta'minlandi.<sup>3</sup>

Rivojlangan mamlakatlar amaliyotida kichik biznes iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, aholini ish bilan ta'minlash muammosini hal etish va xalq farovonligini yuksaltirishda katta ahamiyatga ega. Ushbu bitiruv malakaviy ishini aynan "Tijorat banklari tomonidan mikro kreditlar berishni rivojlantirish yo'llari" mavzusida olinishining sababi, O'zbekistonda kichik biznesni va tadbirkorlikni rivojlantirish va uni moliyaviy qo'llab quvvatlashda tijorat banklarining mikro kreditlash borasidagi muammolarni o'rganish va ularni bartaraf etish, shuningdek mikro kreditlash faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan. Amalga oshirilgan keng ko'lamlı chora-tadbirlar natijasida, 2016 yil davomida tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun qariyb 15,9 trln. so'm miqdorida yoki 2015 yilga nisbatan 1,3 baravarga ko'p kreditlar ajratildi. Shu jumladan, ajratilgan mikro kreditlar hajmi 3,3 trln. so'mdan ziyodni tashkil etib, mazkur ko'rsatkichning ham 2015 yilga nisbatan 1,3 barobarga o'sishi ta'minlandi. Xususan, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirish uchun 367,2 mlrd.so'm, xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun 1647,0 mlrd.so'm, oziq-ovqat mahsulotlari

---

<sup>3</sup> "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan ma'ruzasi".-Ilmiy-amaliy jurnal. 2017-yil 18-yanvar.

ishlab chiqaruvchi korxonalariga 2752,6 mlrd.so'm, nooziq-ovqat iste'mol mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalariga 2993,0 mlrd.so'm va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining biznes loyihalarini moliyalashtirish uchun 362,1 mlrd. so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratildi.<sup>4</sup>

Ayni vaqtda, mamlakatimizda kichik biznes sub'ektlarini tijorat banklari tomonidan kreditlash, xususan, mikromoliyaviy xizmatlar amaliyotini takomillashtirish borasida hozirgi davrda o'z yechimini topmagan muammolar mavjud. Jumladan, tijorat banklari tomonidan berilgan mikrokreditlarning brutto kreditlar hajmidagi salmog'i juda past darajada qolmoqda.

Yuqorida qayd etilgan holatlar kichik biznesni mikrokreditlash amaliyotini takomillashtirish masalasini mustaqil o'rganish ob'yekti sifatida o'rganish zaruriyatini yuzaga keltiradi va ushbu ish mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

**Bitiruv malakaviy ishining predmeti.** Ishning predmeti bo'lib, O'zbekiston Respublikasida mikrokreditlashning amaldagi holati hamda kichik biznes va tadbirkorlikni mikrokreditlash jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy va moliyaviy munosabatlar hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishi ob'yekt.** O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan kichik biznes va tadbirkorlikni mikrokreditlash amaliyoti hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari.** O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik sub'yektlarini tijorat banklari tomonidan mikrokreditlash amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:

- mikrokreditlarning iqtisodiyotdagi roli va ahamiyatini yoritish;
- tijorat banklari tomonidan mikrokreditlashni tashkil qilishning huquqiy asoslarini bayon qilish;
- O'zbekiston tijorat banklarining kichik biznes va tadbirkorlikni mikrokreditlash jarayonini amaliy holatini umumiy tavsiflash;

---

<sup>4</sup> “www.cbu.uz-Monetar siyosatning 2017 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari”

- O'zbekistonda oxirgi yillarda amalga oshirilayotgan bank islohotlari natijasida kichik biznesni mikrokreditlash faoliyati va samaradorligini tahlil qilish;
- O'zbekiston tijorat banklarining kichik biznes va tadbirkorlikni mikrokreditlashni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Bitiruv malakaviy ishining nazariy-amaliy ahamiyati.** Xorijiy va mahalliy olimlarimiz tomonidan mikrokreditlash amaliyotining o'rganilganlik darajasi bilan tanishish hamda o'rganilgan ma'lumotlar asosida ishlab chiqilgan taklif va amaliy tavsiyalar respublikamizda mikrokreditlash amaliyotini takomillashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqishda foydalanish.

**Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi.** Bitiruv malakaviy ishi kirish, uchta bob, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Bitiruv malakaviy ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, muammoning o'rganganlik darajasi, bitiruv malakaviy ishning maqsadi va vazifalari, ob'yekti va predmeti, olingan natijalarning amaliy ahamiyati yoritilgan.

Birinchi bobda mikromoliyalashning mohiyati va mikrokreditni tashkil etishning huquqiy asoslari yoritilgan.

Ikkinchi bobda tijorat banklari tomonidan mikrokreditlar berish tartibi va tijorat banklari tomonidan mikrokreditlash amaliyotining tahlili keltirilib, o'rganish natijasida shakllantirilgan xulosalar keltirilgan.

Uchinchi bobda mikrokreditlash jarayonida yuzaga keluvchi muammolar va ularning yechimi, O'zbekiston Respublikasida mikrokreditlash faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan takliflar berilgan.

Xulosa va takliflar qismida esa iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish davrida mikrokreditlash faoliyati kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda mikrokreditlash bilan bog'liq muammolar hamda uni bartaraf etish bo'yicha Amaldagi qonunchilik va uni rivojlantirish bo'yicha qilingan tahlil asosida ayrim nazariy xulosalar qilindi hamda qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar keltirildi.

# **1-BOB. TIJORAT BANKLARIDA MIKROKREDITLASHNI TASHKIL ETISHNING ASOSLARI VA UNING MOHIYATI**

## **1.1. O`zbekiston Respublikasi mikromoliyaviy xizmatlar amaliyotining iqtisodiy va huquqiy asoslari**

Bizga ma'lumki, rivojlangan va rivojlanib borayotgan ko'pgina davlatlarda iqtisodiyotning yuksalishiga, kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish orqali erishilgan. Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq iqtisodiyotning g'oyat muhim sohasi bo'lmish, kichik biznesni rag'batlantirishga, xususiy tadbirkorlik huquqlarining kafolatlari va kuchli himoya tizimini mustahkamlashga katta e'tibor qaratildi. Buning boisi shuki, ijtimoiy yo'naltirilgan zamonaviy bozor iqtisodiyotida kichik biznes muhim o'rin egallaydi. Eng avvalo kichik biznes bozor konyukturasi o'zgarishlariga tez moslasha olishga, iste'molchilarning talab-ehtiyojlari qanday o'zgarishiga qarab ish tuta bilishga qodirdir. Kichik biznes raqobatchilik muhitini shakllantiradi, yangi ish o'rinlari yaratilishini, aholining bandlik darajasini o'sishini va uning daromadlari oshib borishini ta'minlaydi hamda ichki bozorni tovarlar va xizmatlar bilan boyitishning muhim manbai bo'lib hisoblanadi.

Respublikamiz birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan "Kichik biznes va tadbirkorlikning banklar, boshqa bozor tuzilmalari va yirik korxonalar bilan kundalik aloqalarini amalda mustahkamlash, ularni haqiqiy sherikchilik munosabatlariga aylantirish lozim" ligini ta'kidlab, bank va moliya muassasalarining bu sohaga yo'naltirilgan faoliyatini isloh qilish lozimligi e'tirof etgan.

Shu munosabat bilan 2011-yilni "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" deb e'lon qilinishi tadbirkorlik sub'yektlarining moliyaviy qo'llab quvvatlashda va faoliyatlarining rivojlanishida hamda yildan-yilga ular sonining oshib borishiga muhim omil bo'lib xizmat qildi.

Xususiy tadbirkorlik - kichik biznesning eng ko'p sonli qismidir. Respublika qonunchiligiga muvofiq, yuridik shaxs maqomidan xoli va ishchilarni yollash xuquqsiz mustaqil mehnat faoliyati bilan shug'ullanayotgan jismoniy shaxslar, shuningdek, hamkorlikda tadbirkorlik faoliyatini olib borayotgan oilaviy tadbirkorlik, dehqon xo'jaliklari va oddiy shirkat ishtirokchilari xususiy tadbirkor deb yuritiladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 39-moddasiga muvofiq: "O'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, suda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi". Yuridik shaxslarning foyda olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan turlari tadbirkorlik sub'yektlari hisoblanadi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik aholi orasida ish yuritish va tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish, uning bozor munosatlariga moslashganlik darajasini oshirishda potensial samarali vositadir. Fuqarolarga nafaqat o'z ishchi kuchi, balki o'z mulki jumladan, ishlab chiqarishga mo'ljallangan mulk egasi bo'lishga imkon yaratib, u o'rta sinf - jamiyatning progressiv taraqqiyotini ta'minlashga qodir, demokratiya va ijtimoiy barqarorlikda manfaatdor ijtimoiy qatlamning shakllanishi uchun asos yaratadi.

Amaldagi qonun hujjatlariga binoan kichik biznes sub'yektlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1. Yakka tartibdagi tadbirkorlar;
2. Mikrofirmalar – ishlab chiqarish tarmoqlarida band bo'lgan xodimlarining yillik o'rtacha soni 20 kishidan, xizmat ko'rsatish sohasi va boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo'lmagan tarmoqlarda 10 kishidan, ulgurji, chakana savdo va umumiy ovqatlanish sohasida 5 kishidan oshmagan korxonalar.
3. Kichik korxonalar – yengil va oziq-ovqat sanoati, metallga ishlov berish va

asbobsozlik, yog'ochni qayta ishlash, mebel sanoati va qurilish materiallari sanoatida band bo'lgan xodimlarining yillik o'rtacha soni 100 kishidan, mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish va qayta ishlash, qurilish hamda boshqa sanoat ishlab chiqarish sohalarida 50 kishidan, fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish sohasi (sug'urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlanish hamda boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo'lmagan sohalarda 25 kishidan oshmagan korxonalar;

4. Dehqon xo'jaligi – oilaviy mayda tovar xo'jaligi bo'lib, oila a'zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig'iga berilgan tomorqa yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtiradi va realizatsiya qilish bilan shug'ullanuvchi sub'yekt.

Dehqon xo'jaligidagi faoliyat tadbirkorlik faoliyati jumlasiga kiradi hamda dehqon xo'jaligi a'zolarining istagiga ko'ra yuridik shaxs tashkil etgan holda va yuridik shaxs tashkil etmasdan amalga oshirilishi mumkin. Dehqon xo'jaligi o'z faoliyatida yollanma mehnatga doimiy asosda foydalanishi mumkin emas.

5. Fermer xo'jaligi – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi tovari ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'yekt.

6. Oilaviy tadbirkorlik – jismoniy shaxslarning yuridik shaxs tashkil etmagan holda amalga oshiriladigan birgalikdagi faoliyat turi bo'lib, er-xotin tomonidan ularga birgalikdagi umumiy mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan umumiy mol-mulk negizida amalga oshiriladi. Oilaviy tadbirkorlik er-xotinning va ularga ko'maklashadigan oila a'zolarining shaxsiy mehnatiga asoslanadi. Oilaviy tadbirkorlik sub'yekti qonun xujjatlarida belgilangan tartibda er-xotindan qaysisining nomiga ro'yxatga olingan bo'lsa, u oilaviy tadbirkorlik sub'yekti nomidan ishni olib boradi. Yakka tartibdagi tadbirkorni davlat ro'yxatiga olish vaqtida beriladigan guvohnomada yakka tartibdagi tadbirkorlik oilaviy tadbirkorlik shaklida amalga oshirilishi ko'rsatiladi.

Yakka tartibdagi tadbirkorni davlat ro'yhatiga olinganligi haqidagi guvohnomada tadbirkorlik faoliyati oilaviy tadbirkorlik shaklida yuritilishi to'g'risida yozuv bo'lmagan hollarda, oilaviy tadbirkorlik sub'yekti boshlig'i ro'yhatga oluvchi organga ushbu guvohnomaning "Izohlar" grafasiga bu haqda belgi qo'yish uchun murojaat qilishi mumkin. Ushbu belgini qo'yish ariza asosida amalga oshiriladi.

7. Shaxsiy yordamchi xo'jalik – shaharcha, qishloq, ovullarda yashovchi fuqarolarga meros qilib qoldirilgan umrbod egalik qilish huquqi asosida uy-joy qurish uchun berilgan uchastkalarining bir qismi – tomorqada oila a'zolarining shaxsiy mehnati asosida oila ehtiyojlari uchun dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hamda oila ehtiyojidan ortiqchasini dehqon bozorlarida sotish bilan shug'ullanadigan oilaviy xo'jalik tushuniladi.

Albatta bunday faoliyat turlari bilan shug'ullanish uchun ma'lum miqdorda mablag' kerak bo'ladi. Tadbirkorlik faoliyatini boshlashda o'z mablag'laridan yoki qarz mablag'laridan foydalanish mumkin. O'z mablag'laridan foydalanish deganda, tadbirkorlik sub'yektining o'z shaxsiy mablag'lari hisobidan ish boshlashi tushunilsa, qarz mablag'lari bu ularning banklar va nobank kredit tashkilotlaridan olgan mablag'lar orqali moliyalashtirishi hisoblanadi. Bunda kichik biznesni moliyalashtiruvchi sub'yekt bo'lib, birinchi navbatda mikromoliyaviy xizmatlarini taklif qilgan holda tijorat banklari oldinga chiqadi.

Mikromoliyalash xizmatlarining mohiyati borasida turli adabiyotlarda ko'plab iqtisodchi olimlar tomonidan turlicha ta'riflar berilgan va mulohazalar yuritilgan. Xususan, iqtisodchi olimlar F.Allen va D.Geyl kichik va o'rta biznes sub'yektlari faoliyatini moliyalashtirishning ikki tizimi-banklar va moliya bozorlariga asoslangan tizimning mavjudligini e'tirof etishib, bunda birinchi tizimning ya'ni banklar tomonidan kreditlar berilishini muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlashadi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olim D.Tojiboyevaning ta'rifiga ko'ra, "Mikrokreditlash-bu iqtisodiy munosabatlar tizimi bo'lib, mikrokreditlarni qaytarib berishlik, foiz to'lashlilik va muddatlilik shartalari asosida berish va olish bilan

tavsiflanadi va an'anaviy kreditlashdan ijtimoiy va guruhli garovdan foydalanishning mumkinligi bilan farq qiladi".<sup>5</sup>

2006 yil 15 sentyabrdagi 50-sonli O'zbekiston Respublikasi «Mikromoliyalash to'g'risida»gi qonunida mikromoliyalashga quyidagicha ta'rif berilgan: "Mikromoliyalash-bu mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlarning qonun hujjatlarida belgilangan miqdordan oshmaydigan summada mikrokredit, mikroqarz, mikrolizing berish, shuningdek mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish to'g'risidagi shartnomaga muvofiq boshqa xizmatlar ko'rsatish borasidagi faoliyatidir".

Mikromoliyalashning kelib chiqish va rivojlanish tarixiga nazar soladigan bo'lsak, ushbu xizmatning evolutsiyasi XIX asrning 40 yillarida Germaniya qishloq xo'jaligida yuz bergan tanglik holatidan (og'ir iqlim sharoitining yuzaga kelishi va hosildorlik bo'lmaganligi) boshlandi va o'sha davrda Fredrix Rayfayzen tomonidan Veyerbush shahrida Evropada birinchi bor "Non Ittifoqi" o'zaro yordam kassasi tashkil etildi. XX asrning 50-70 yillarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi sust bo'lgan mamlakatlarda davlat organlari va donor tashkilotlari kichik va kam ta'minlangan fermerlarga ularning mehnat unumdorligi va daromadlari darajasini oshirish umidida subsidiyalashtirilgan qishloq xo'jalik kreditlari berishni boshlagan. 1970 yillardan so'ng rivojlanayotgan mamlakatlarda kam ta'minlangan aholi qatlamiga kichik hajmdagi kreditlar berish va boshqa maslahat xizmatlari ko'rsatish bo'yicha tajribalar o'tkazildi.


1980-1990 yillarda mikrokreditlar asosan aktivlarga ega bo'lish va ularni jamg'arish, oilalarning daromadini va turmush darajasini oshirish uchun kam ta'minlangan tadbirkorlarga qarz berish sifatida namoyon bo'lgan.

Mikromoliyalashga oid xalqaro me'yorlar uning xalqaro miqyosda ommaviylashuvi bilan bog'liqdir. Mikrokreditlash kontseptsiyasi iqtisodiyot professori Muhammad Yunus tomonidan ishlab chiqilgan. U asli bangladeshlik bo'lib, AQShda tahsil olgan hamda 1974 yili o'z mamlakatida ocharchilik va

---

<sup>5</sup> Tadjibayeva D.A. Muminov I.O. Mikromoliyalash:mikrokredit tashkilotlari uchun qo'llanma. Toshkent. Moliya -2009. 13-bet.

kambag'alchilikka qarshi kurashish maqsadida mikroreditlash tizimini ishlab chiqqan. 1976-yilda Yunus kambag'al bangladeshliklar uchun mikroreditlar berish bilan shug'ullanuvchi "Grameen" bankini tashkil etib, shu yildan boshlab



**1-rasm. Xalqaro amaliyotga ko'ra mikroreditlash usullari<sup>6</sup>**

bank tomonidan qariyb \$ 5 mlrd so'mlik 4 milliondan ortiq kreditlar ajratildi. Ushbu bank hozirgi kunda ham mikroreditlar ajratish bo'yicha yetakchi hisoblanib, mikroredit loyihalarining ko'pchiligi, ya'ni qariyb 96%i ayollar uchun maxsus ishlab chiqilgan. M.Yunusning mikromoliyaviy xizmatlar bo'yicha amaliyotga tatbiq etilgan taklifi qo'llanilishi o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida ushbu xizmat turlarini takomillashtirishning zaruriy sharti hisoblanadi. Buning sababi shundaki, birinchidan, mikroreditlarni asosan aholining kam ta'minlangan qatlamlari oladi. Ularning daromad darajasi past bo'lib, yuqori foiz stavkalaridagi mikroredit va mikrolizing xizmatlaridan foydalanish imkoniyati cheklangan. Ikkinchidan, aholining kambag'al qatlamlari va endi tadbirkorlik faoliyatini boshlagan kichik biznes sub'ektlari yuqori likvidli garov ob'ektlariga ega emas. Bu esa, mikromoliyaviy xizmatlar hajmini oshirishga jiddiy to'sqinlik qiladi.

Yakka holda kreditlash odatda, tijorat banklari tomonidan qo'llaniladigan

<sup>6</sup> [www.investopedia.com](http://www.investopedia.com)-Iqtisodchilarni malakasini oshirish bo'yicha maxsus sayt.

usulning yangi ko'rinishi bo'lib, unda olinadigan qarzar mol-mulk bilan kafolatlanadi hamda mijozlarning kredit tarixi va ularga berilgan tavsiyalar tekshiriladi, qarz berishda ta'minlanayotgan biznesning hayotiyliigi, istiqboli sinchiklab o'rganilgandan so'ng kredit beriladi. Mazkur uslubiyatning odatdagi kreditlashdan farqi unda maslahat berish va o'rgatish kabi vositalarning mavjudligidir. Guruh bo'lib kreditlash uslubiyotiga ko'ra, bank xodimlari tomonidan bajariladigan vazifalar kredit guruhi zimmasiga yuklanadi, uning shakllanishi mikrokredit va lombard tashkiloti xodimining tashabbusiga ko'ra yuz beradi. Guruh bo'lib kreditlashda mijozlarni guruhning o'zi tekshiradi va uning tarkibiga kim kirishi mumkinligini o'zi hal etadi. Guruh a'zolari bir-birining biznesini va kreditni qaytarish imkoniyatlarini baholashadi, kreditlash asta-sekin ko'payuvchi, uncha katta bo'lmagan miqdorda qarz berish yo'li bilan amalga oshiriladi, guruh a'zolarining har biri olingan qarzni qaytarish yuzasidan javobgar bo'ladi, qarzni qaytarish muddati buzilganda yoki to'lanmasa, guruh to qarzini tamoman uzmagunicha navbatdagi kreditni olish imkoniyatidan mahrum etiladi. Amaliyotda nobank kredit tashkilotlarida guruhlariga qarzning hamma qismini berish usuli ham qo'llaniladi va guruh qarzni a'zolariga qay tartibda berishni o'zi hal etadi.

Guruh kafolati asosida kreditlash uslubiyotining o'ziga xos xususiyati, nafaqat guruhiy nazoratni, balki biznesda guruh a'zolarining birdamligi va hayrihoxligini, o'zaro bir-birini qo'llab-quvvatlashini ta'minlaydi. Shuningdek, ushbu amaliyotni jamiyatning nisbatan kam ta'minlangan qatlamlarida joriy qilish imkonini beradi.

Moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyati odamlarning tadbirkorlik salohiyatini kuchaytirib, u iqtisodiyot va biznesning shaffofligini oshirish usuli hamdir. Yurtimizda ham o'zining turmush farovonligini yaxshilashga harakat qiluvchi kam ta'minlangan aholi qatlamini qo'llab-quvvatlash bo'yicha ma'lum tajribalar to'plangan.

O'zbekistonda mikrokreditlash ilk bor, 1998 yilda BMTning Taraqqiyot dasturi (PROON) asosida Qoraqalpog'iston va Qashqadaryoda pilot loyihalarni

amalga oshirishdan boshlandi. Bundan maqsad kam ta'minlangan aholi qatlamini va ayollarni oila sharoitida savdo, kichik ko'lamdagi ishlab chiqarish, mikrobiznesni rivojlantirish uchun moliyaviy resurslarga ega bo'lish imkoniyatini kengaytirishdan iborat bo'ldi.

Butun dunyoda qo'llanib kelayotgan mikromoliyalash kategoriyasi O'zbekiston iqtisodiyoti uchun yangi kategoriyadan biri sanalib, uning mikrokreditlash, mikrojamg'armalar, mikrolizing kabi turlari bor. Bular orasida mamlakatimizda mikroqarz, mikrokredit va mikrolizing xizmati ustunlik qilib kelmoqda va ularga oid huquqiy baza yaratilgan.

Mamlakatimizda mikrokreditlashning normativ-huquqiy bazasi 1999 yildan shakllantirildi. Adliya vazirligi tomonidan 2000 yil 29 fevralda 902 va 903-son bilan davlat ro'yxatiga olingan mikrokreditlash tartiblariga hamda Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 30 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida mikrokreditlashni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 309-sonli Qaroriga asosan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini mikrokreditlashni qonuniy-huquqiy bazasi shakllantirildi. Mazkur qonun hujjatlari hozirda o'z kuchini yo'qotgan bo'lsada, mikrokreditlashning shakllanishiga muhim hissa qo'shgan. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 24-avgustdagi "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4354-sonli hamda 2012 yil 18-iyuldagi "Ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4455-sonli Farmonlari ham mikrokreditlash tizimining shakllanishiga zamin yaratdi.

Mikromoliyalashning huquqiy asoslariga quyidagi qonun hujjatlarini keltirishimiz mumkin:

- O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi;
- O'zbekiston Respublikasining "Markaziy banki to'g'risida"gi qonuni (1995 yil 21 dekabr, №154-1 son);


- O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida" gi qonuni(1996 yil 27 dekabr 357-1 son);
- O'zbekiston Respublikasining "Mikromoliyalashtirish to'g'risida"gi qonuni (2006 yil 15 sentyabr, O'RQ-50-son);
- O'zbekiston Respublikasining "Mikrokredit tashkilotlari to'g'risida"gi qonuni (2006 yil 20 sentyabr, O'RQ-53-son);
- O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 12 avgustdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida" qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi qonuni, 2016 yil 14 sentyabr;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5 oktyabrdagi "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni;
- Vazirlar Mahkamasining "Mikromoliyaviy xizmatlar bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'grisida" 2007 yil 19 fevraldagi 37-sonli qarori;
- "Kichik tadbirkorlik sub'yektlarni milliy valutada kreditlash tartibi to'grisida" gi nizom (Adliya vazirligi 27-dekabr, 2013-yilda 2546-son bilan ro'yhatga olingan, Markaziy bank 23-noyabr, 2013, 22/9 son);

2006 yil 15 sentyabrdagi O'RQ-50-sonli O'zbekiston Respublikasi «Mikromoliyalash to'g'risida»gi qonunida mikromoliyalashning maqsadi, turlari, berish tartiblari to'liq yoritib berilgan.

Qonunning asosiy maqsadi mikromoliyaviy xizmatlar bozorini rivojlantirish, fuqarolarning va tadbirkorlik sub'yektlarining ishchanlik faolligini oshirish uchun ularning moliyaviy mablag'lar hamda xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat "Mikromoliyalash xizmatlari – bu kredit shartnomaga muvofiq, yig'indisi qonun hujjatlarida belgilangan miqdoridan oshmagan mikroqarz, mikrokredit yoki mikrolizing taqdim qilish bo'yicha bank xizmati"dir.

Mikromoliyalash sektori qarz oluvchilarning soni jihatidan O'zbekistondagi eng yirik sektordir. Ularning ko'pchiligi qishloq xo'jalik mahsulotini yetishtirish, savdo, xizmatlar ko'rsatish yoki buyurtma bo'yicha tikuvchilik ishlari bilan shug'ullanadi.

Jahon amaliyotida mikromoliyalash sohasida quyidagi xizmatlar vujudga kelgan:



## **2-rasm. Jahon amaliyotida mikromoliyaviy xizmatlar turlari<sup>7</sup>**

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasida mikromoliyalash institutlari haqida so'z yuritganda mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatayotgan institutlarni nazarda tutish maqsadga muvofiqdir. Bunday institutlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- Tijorat banklari;
- Nodavlat-notijorat tashkilotlari;
- O'zbekiston Respublikasi qonunlariga ko'ra ro'yxatdan o'tkazilgan, asosiy faoliyati mikromoliyalash bo'lgan mahalliy tashkilotlar;
- O'zbekistonda xo'jalik yurituvchi sub'yektlar sifatida ro'yxatga olingan xalqaro va chet el tashkilotlarining dasturlari va loyihalari;
- Lombardlar;
- Sug'urta kompaniyalari;

<sup>7</sup> Azizov U. Karaliyev T. va boshqalar "Bank ishi" darslik ,” Fan va texnologiya" Toshkent - 2016 .

- Lizing kompaniyalari.

Mikrokredit-bank yoki boshqa tashkilot tomonida mijozga berilgan ozroq miqdordagi pul. Mikrokredit, ko'pincha, garovsiz yakka tartibda yoki guruh bo'lib kreditlash orqali taklif qilinadi.

Mikrojamg'armalar-pulni deponentga qo'yish xizmatlari bo'lib, bu xizmatlar biron-bir shaxsga kelgusida foydalanish uchun ozroq miqdorda pul saqlash imkonini beradi. Jamg'arma hisobvaraqlari oilalarga kutilmagan xarajatlarni qoplash va kelgusidagi investitsiyalarni rejalashtirish uchun mablag' jamg'arish imkonini beradi.


Mikrosug'urtalash-sug'urtalash bo'yicha xizmatlar bo'lib, ulardan foydalanish tadbirkorlarga o'z bizneslarini rivojlantirishga ko'proq e'tibor berish, ayni vaqtda, mulkka, salomatlikka yoki mehnat qobiliyatiga ta'sir ko'rsatadigan boshqa xatarlarni kamaytirish imkonini beradi. Sug'urta mahsulotlari turlari hayotni, mol-mulkni, salomatlikni va nogironlikdan sug'urtalashni o'z ichiga oladi.

Mikrolizing–kichik korxonalariga yoki mayda tadbirkorlarga qimmat turmasa-da, ular to'liq bahosiga sotib ololmaydiga uskunlar, qishloq xo'jalik texnikasi yoki transport vositalarini lizingga berish xizmatlari.

Pul o'tkazmalari-bu pul jo'natuvchining mablag'larini oluvchiga: asosan chet eldagi oilasiga yoki do'stlariga yuborish xizmatlaridir. Bahosi siyosiy iqtisodiy muhitga bog'liq holda o'zgarib turadigan boshqa sarmoya manbalariga qiyos qilganda pul jo'natish nisbatan barqaror mablag' manbaidir.

Yuqorida biz jahon amaliyotida mikromoliyalash sohasi bo'yicha xizmatlar va ularga berilgan ta'riflar bilan tanishdik. O'zbekiston Respublikasining "Mikromoliyalash to'g'risida"gi qonunida mikromoliyaviy xizmatlar va uning mohiyati quyidagicha yoritilgan:

Mikrokredit qarz oluvchiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun eng kam ish haqining ming baravari miqdoridan oshmaydigan summada to'lovlilik, muddatlilik va qaytarish shartlari asosida beriladigan pul mablag'laridir.



### **3-rasm. O'zbekiston sharoitida mikromoliyaviy xizmat turlari<sup>8</sup>**

Mikrokredit qarz oluvchiga pul mablag'larini shartnomaga muvofiq muayyan maqsadlar uchun ishlatish shartlari asosida (maqsadli mikrokredit) berilishi mumkin.

Mikroqarz mikrokredit tashkilotlari tomonidan jismoniy shaxs bo'lgan qarz oluvchiga eng kam ish haqining yuz baravari miqdoridan oshmaydigan summada muddatlilik va qaytarish shartlari asosida, shartnomada nazarda tutilgan hollarda esa to'lovlilik sharti asosida ham beriladigan pul mablag'laridir.

Mikrolizing mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilot tomonidan lizing oluvchining topshirig'iga binoan uchinchi tarafdin mol-mulk olish hamda uni egalik qilish va foydalanish uchun lizing oluvchiga shartnomada belgilangan shartlar asosida haq evaziga berish nazarda tutiladigan xizmatdir.

Mikrolizing tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun lizing to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq eng kam ish haqining ikki ming baravari miqdoridan oshmaydigan summada beriladi.

Mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlar bo'lib, banklar, kredit uyushmalari, mikrokredit tashkilotlari, lombardlar va boshqa kredit tashkilotlari hisoblanadi.

Mikromoliyaviy xizmatlar mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish qoidalariga muvofiq ko'rsatiladi. Mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish qoidalari mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlar tomonidan qonunga muvofiq belgilanadi.

---

<sup>8</sup> Azizov U. Karaliyev T. va boshqalar "Bank ishi" darslik ,” Fan va texnologiya" Toshkent - 2016

Mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish qoidalari barchaning tanishib chiqishi uchun ochiq bo'lishi va mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish shartlarini, shuningdek mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish miqdori, muddatlari va haqi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak.

Mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlar o'z mablag'lari, shu jumladan olgan daromadlari hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatadi.

Mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish qoidalariga muvofiq, yuridik va jismoniy shaxslar mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotga mikromoliyaviy xizmatlardan foydalanish uchun buyurtma hamda o'z faoliyati va daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan boshqa hujjatlar taqdim etadi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda tadbirkorlik sub'yektlariga keng yo'l ochib berish, ularning faoliyatiga noqonuniy aralashishning oldini olish, aholining farovonligini oshirish, iqtisodiyotni erkinlashtirishga qaratilgan keng qamrovli islohotlarning mantiqiy davomi sifatida "Mikrokredit tashkilotlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunini keltirish mumkin.

Mikrokredit tashkilotlari to'g'risidagi qonunning ishlab chiqilishi hamda qabul qilinishidan ko'zlangan asosiy maqsad - bu rivojlangan xorijiy mamlakatlarda samarali faoliyat yuritib kelayotgan, endilikda mustaqil diyorumizda ham qonuniy negiziga ega bo'lgan mikrokredit tashkilotlarini tuzish, ular faoliyatining huquqiy asoslarini ishlab chiqish hamda nazorat qilish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish bilan birga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni isloh qilish va modernizatsiyalashning maqsad va vazifalarini amalga oshirish Dasturi to'g'risida"gi 2005 yil 10 martdagi PQ-24-sonli qarorining ijrosini ta'minlashdan iborat bo'lgan.

Ushbu qonunga muvofiq mikrokredit tashkiloti bu- mikrokredit, mikroqarz, mikrolizing berish sohasida xizmatlar ko'rsatish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va qonunga ko'ra boshqa mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxs.


Mikrokredit tashkiloti tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarning ahamiyatli tomoni shundaki, unda boshqa katta moliyaviy institutlar tomonidan ko'rsatiladigan moliyaviy xizmatlardan farqli ravishda mikrokredit, mikroqarz yoki mikrolizing olish uchun talab etiladigan hujjatlar hamda mikrokredit oluvchining o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini bajarilishini ta'minlovchi vositasi sifatida garovga qo'yiladigan mol-mulk, uning sug'urtasi uchun qo'shimcha xarajatlar katta bo'lmaydi. Undan tashqari, qishloq hududlarida ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, aholini ish bilan ta'minlash kabi masalalarni mikrolizing xizmati, ya'ni ishlab chiqarish uskunalari o'rnatish orqali hal etish mumkin. Mikrokredit tashkiloti O'zbekiston Respublikasi hududida bank hisobvaraqlarini belgilangan tartibda ochishga haqli.

Mikrokredit tashkiloti ishlab chiqarish, sug'urta, savdo-vositachilik va ushbu qonunda nazarda tutilmagan boshqa faoliyat bilan bevosita shug'ullanishga haqli emas.

Shu bilan birga, Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 6 maydagi ATB «Mikrokreditbank» aksiyadorlik-tijorat banki faoliyatini tashkil etish va uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori, aytish mumkinki, mikrokredit tashkilotlarini rivojlantirish yo'lidagi asosiy qadamlardan biri bo'ldi. Ushbu qaror bilan «Mikrokreditlar berish va mikrolizing xizmatlari ko'rsatish tartibi to'g'risida»gi nizom ham tasdiqlandi.

Tadbirkorlik sub'ektlariga mikrokreditlar berish va mikrolizing xizmatlari ko'rsatish xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, yakka tartibdagi mehnat faoliyatini, oilaviy biznesni va kasanachilikni rivojlantirish yo'li bilan yangi ish o'rinlari yaratish, aholi keng qatlamlarining, shu jumladan qishloq joylarda, moliyaviy resurslardan foydalana olishini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi.

Mulk garovi mikrokreditni ta'minlashning asosiy shakli bo'lib xizmat qiladi. Har qanday mulk, shu jumladan buyumlar va «Garov to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq mulkiy huquqlar (talablar) garov predmeti bo'lishi mumkin.



#### **4-rasm.Foydalanish yo'nalishlariga ko'ra mikrokreditlar turlari<sup>9</sup>**

ATB «Mikrokreditbank»ka murojaat qilgan tadbirkorlar kredit olgungacha ATB «Mikrokreditbank» tomonidan bepul tashkil etiladigan seminarlarga yuboriladi. Beriladigan mikrokreditlar, ko'rsatiladigan lizing xizmatlari turlari va mexanizmlari shuningdek, biznes-reja tuzish bo'yicha ikkita bazaviy seminarida qatnashish majburiy hisoblanadi. Mikrokreditlar ta'minlanganlik va ishonchlik asosida beriladi.

Mikrokreditlar faqat qoniqarli kredit tarixiga ega bo'lgan va oldin olingan uchta kreditni o'z vaqtida to'lagan qarz oluvchilarga ishonch asosida berilishi mumkin.

Kredit ishonch asosida berilganda bo'lajak to'lovlar bo'yicha ta'minlash sifatida qarz oluvchilar tomonidan kredit qiymatining 20 foizigacha miqdordagi summada majburiy jamg'ariladigan depozit joylashtiriladi, unga bank tomonidan foiz to'lovlari qo'shiladi.

Ta'kidlash lozimki, mikromoliyalash va mikrokredit tashkilotlari faoliyatining huquqiy asoslari 2006 yildan hozirgi kunga qadar ta-komillashib kelmoqda. Chunki 2006 yildan boshlab mikromoliyalash va mikrokredit tashkilotlari maxsus qonun bilan yuridik shaxs maqomiga ega bo'ldi. Bunga qadar ular amaliyotda ko'plab muammolarga duch kelar edi. Ayni paytda bu muammolar izchillik bilan hal qilinmoqda.

---

<sup>9</sup>ATB Mikrokreditbankning 2008 yil 17 dekabrda "Mikrokreditlar berish va mikrolizing xizmatlari ko'rsatish tartibi to'g'risida"gi 273-sonli nizomi

## 1.2. Mikrokreditning iqtisodiyotdagi roli

Mamlakat iqtisodiyoti va uning yetakchi tarmoqlarini diversifikatsiyalash va modernizatsiyalash uchun ham tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishda tijorat banklarining kreditlash jarayonlarini takomillashtirish uning iqtisodiy barqarorligi, ayniqsa, xavfsizligini ta'minlash, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi oqibatlarini bartaraf etishda va yangi salbiy moliyaviy tebranishlar oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tijorat banklari barqarorligi, likvidligi va iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash esa banklarning real iqtisodiyotni kreditlash bilan bog'liq kredit portfelini to'g'ri shakllantirish va risklar oshishini kamaytirish, ularni samarali boshqarish bilan amalga oshiriladi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan insoniyatni global muammolarini hal etish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish va masshtabini kamaytirish maqsadi qo'yilgan. Ushbu maqsadga erishishning hayotbaxsh strategiyalaridan biri mikromoliyalashtirish bo'lib, bu o'zining samaradorligini ko'pgina davlatlarda ko'rsatdi. Hozirgi vaqtda mikromoliyalashtirish tashkilotlari dunyo bo'yicha 500 mln.dan ortiq mijozlarga xizmat qiladi, ularning jami kredit portfeli 2,0 mlrd.dollardan oshiqdir. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyo bo'yicha mikromoliyalashtirish tashkilotlari 67,6 mln. oilaga foyda keltirmoqda, ularning katta qismi – 37,7 mln. mikromoliyalashtirish dasturida ishtirok etishni boshlaganlarida juda kambag'al oilalardan bo'lganlar. Mikromoliyalashtirishni tor va keng ma'noda qarash mumkin. Tor ma'noda mikromoliyalashtirish deganda unchalik katta bo'lmagan kreditlar berish va lizing xizmatini ko'rsatishga tushuniladi. Keng ma'noda esa, mikromoliyalashtirish deganda mikrokredit va mikrolizingdan tashqari mikrojamg'armalar, mikrosug'urtalar, pul o'tkazmalari va konsalting xizmatlari kabi keng tarmoqli moliyaviy xizmatlarni o'z ichiga oladi.

Mikromoliyalashtirish quyidagilarga ko'maklashadi:

- kam ta'minlangan aholini tadbirkorlikka jalb etishga;
- kambag'allikni qisqartirishga, insonlarni ijtimoy-iqtisodiy rivojlanishiga;
- ayollarni iqtisodiy jarayonlarga jalb etib, gender muaamosini yechishga;

- yangi ish o'rinlari yaratishga;
- moliya bozorida yangi segmentni yaratilishiga va h.k.

Boshlang'ich davridan boshlab mikromoliyalashtirish xizmatlari asosan yashash daradasi o'rtachadan past bo'lgan odamlarga ko'rsatilgan. Asta-sekin mikromoliyalashtirish tashkilotlari faoliyati jamiyat tomonidan, shu jumladan, davlat organlari tomonidan tan olina boshlandi. Chunki mikromoliyalashtirish tashkilotlari nodavlat notijorat tashkilotlari sifatida tuzilib, o'zining faoliyatida ijtimoiy foydali maqsadlarga intiladi. Mikromoliyalashtirish o'ziga yaqin bo'lgan kategoriyalar bo'lmish kichik biznes sub'yektlarini banklar tomonidan kreditlash, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash programmalarini va ijtimoiy nafaqalardan alohida xususiyatlari bilan farq qiladi.

Mikromoliyalashtirish tashkilotlari kreditlarni imtiyozli foiz stavlari bo'yicha bermaydi, ular xajmi kichik bo'lgan kreditlar berishadi va uning ta'minotga hech narsa talab qilmaydi. Shuningdek, mikromoliyalashtirish ijtimoiy programma emas, u aholining juda kambag'al qatlamiga pul mablag'larini nafaqa ko'rinishida berishni nazarda tutmaydi.

Mikromoliyalashtirish o'z faoliyati natijasida daromad olish qobiliyatiga ega bo'lgan kishilarga moliyaviy impuls beradi.

Demak, mikromoliyalashtirish tashkilotlari kichik tadbirkorlarni qo'llab quvvatlash, aholining iqtisodiy aktivligini oshirish hisobidan yashash darajasini rivojlantirish va oilalar daromadini oshirishga yo'naltirilgandir.

Mikromoliyalashtirish funksiyasini iqtisodiy va ijtimoiy funktsiyalarga bo'lish mumkin: Mikromoliyalashtirish iqtisodiy funktsiyasi bilan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishiga, aholini ushbu jarayonga jalb qilinishiga, shuningdek, kichik biznesni yiriklashishiga va mulkdorlar qatlamini yaratilishi ko'maklashdi. Mikromoliyalashtirish yangi moliya tuzilmasi sifatida moliya tizimini kengayishi va mustahkamlashiga, jamg'armalar va kreditlarni bozorini diversifikatsiyalashga ko'maklashadi. Shuningdek, mikromoliyalashtirish keyinchalik banklardan kredit olish uchun kredit tarixini yaratish vositasi ham hisoblanadi.

Mikromoliyalashtirish ijtimoiy funksiyasi bilan kambag'allikni kamaytirish va bandlikni oshirish vositasi hisoblanadi. Shuningdek, u aholining turmush darajasini oshishiga, ijtimoiy tengsizlikni qisqarishiga va aholini o'zining imkoniyatlarini realizatsiya qilishiga ko'maklashadi.

2017-2021 yillarda mamlakatimizni rivojlantirish dasturida quyidagilar ko'rsatilgan. Xususiy mulkning huquq va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash, barcha turdagi to'siq va cheklovlarni bartaraf etish, xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivojiga to'liq erkinlik berish ko'zda tutilgan.

Bundan tashqari kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik tuzilmalarining faoliyatiga davlat, nazorat va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan noqonuniy aralashuvlarning qat'iy oldini olish belgilab qo'yilgan.

Davlat mulkini xususiylashtirishni kengaytirish va uning tartib-taomillarini yanada soddalashtirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ustav jamg'armalarida davlat ishtirokini kamaytirish, davlat mulki xususiylashtirilgan ob'yektlar bazasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish dolzarb masalalardan biridir. Shuning uchun tijorat banklari tomonidan ushbu subyektlarga bir qancha imtiyozlar berilgan.

1-jadval

**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yaratadigan ish o'rinlariga ko'ra beriladigan kreditlar bo'yicha foizlar tasnifi<sup>10</sup>**

<b>№</b>	<b>Ish o'rinlari soni</b>	<b>O'rnatilgan % Stavka</b>
1	1 ish o'rni	9 %
2	2 ta ish o'rni	8 %
3	3-4 ta ish o'rni	7 %
4	5 va undan ortiq ish o'rni	6 %

<sup>10</sup> O'zbekiston Respublikasi Shavkat Mirziyoyevning 7-fevral 2017-yildagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etmoqchi bo'lgan subyektlarga tabaqalashtirilgan foizlarning qo'llanilishi ularda yangi ish o'rinlarini yaratishga bo'lgan qiziqishni uyg'otib, aholi bandlik darajasini oshishiga olib keladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini tartibga solishda davlat ishtirokini kamaytirish, davlat boshqaruvi tizimini markazlashtirishdan chiqarish va demokratlashtirish, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish, nodavlat, jamoat tashkilotlari va o'zini o'zi boshqarish organlarining rolini oshirish kabilar keltirib o'tilgan.

Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish maqsadida tijorat banklari tomonidan mikrokreditlar ajratilmoqda. Yoshlar tadbirkorligi- bu yuridik shaxs tashkil etmagan holda yosh fuqarolar tomonidan, shuningdek ta'sischilari yosh fuqarolar bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyatidir. Davlat yoshlarning iqtisodiy mustaqilligini qo'llab-quvvatlagan holda, yoshlarni tadbirkorlik faoliyati asoslari bo'yicha o'qitish, ta'lim muassasalari va ish beruvchilar o'rtasida hamkorlikni shartnoma asosida rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratdi. Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish maqsadida mamlakatimiz banklari tomonidan imtiyozli asoslarda kreditlar berib, ularning faoliyati uchun imkoniyatlar eshigini ochib bermoqda.

### **1-bob boyicha xulosa**

Xulosa qilib aytganda, hozirgi kunda mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka katta ahamiyat berilmoqda. Chunki avvalo kichik biznes bozor kon'yukturasi o'zgarishlariga tez moslasha olishga, iste'molchilarning talab-ehtiyojlari qanday o'zgarishiga qarab ish tuta bilishga qodirdir. Kichik biznes raqobatchilik muhitini shakllantiradi, yangi ish o'rinlari yaratilishini, aholining bandlik darajasini o'sishini va uning daromadlari oshib borishini ta'minlaydi hamda ichki bozorni tovarlar va xizmatlar bilan boyitishning muhim manbai bo'lib hisoblanib, uning rivojlanishi moliyaviy resurslarga ehtiyoj sezadi. Bu vazifani esa o'zining mikromoliyaviy xizmatlarini taklif qilgan holda tijorat banklari amalga oshiradi.

Mikromoliyalash bu mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlarning qonun hujjatlarida belgilangan miqdordan oshmaydigan summada mikro kredit, mikroqarz, mikro lizing berish faoliyati bo'lib, shundan mikro kreditlar tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun eng kam ish haqining ming baravari miqdoridan oshmaydigan summada to'lovlilik, muddatlilik va qaytarish shartlari asosida beriladigan pul mablag'laridir.

Yurtimizda mikromoliyalashning huquqiy bazasini tashkil etuvchi ko'plab qonunlar va qarorlar ishlab chiqilgan hamda amaliyotga tadbiq etilgan. Shulardan O'zbekiston Respublikasining „Mikromoliyalash to'g'risida“gi va „Mikro kredit tashkilotlari to'g'risida“gi qonunlarini misol qilish mumkin.

Mikromoliyalashtirish tashkilotlari kreditlarni imtiyozli foiz stavlari bo'yicha bermaydi, ular xajmi kichik bo'lgan kreditlar berishadi va uning ta'minotga hech narsa talab qilmaydi. Shuningdek, mikromoliyalashtirish ijtimoiy programma emas, u aholining juda kambag'al qatlamiga pul mablag'larini nafaqa ko'rinishida berishni nazarda tutmaydi.

Mikro kreditlashning iqtisodiyotdagi roliga keladigan bo'lsak, u eng avvalo, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy resurslar bilan ta'minlangan holda, kam ta'minlangan aholini tadbirkorlikka jalb etishga, ishsizlikni kamaytirishga, kambag'allikni qisqartirishga, insonlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hamda mulkchilikning o'rta sinfini rivojlanishiga yordam beradi.

## **2-BOB. MIKROKREDITLAR BERISHNING TARTIBI VA TIJORAT BANKLARIDA MIKROKREDITLASH AMALIYOTI TAHLILI**

### **2.1. Tijorat banklari tomonidan mikrokreditlar berish tartibi.**

Mamlakatimizda olib borilayotgan moliya-bank tizimidagi islohotlar natijasida bugun yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan bank muassasalari katta-kichik sanoat korxonalarini, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari, fermer xo'jaliklarining ishonchli hamkoriga aylandi. Negaki, yalpi ichki mahsulot hajmi, aholi real ish haqi va daromadlarining o'sishida, yurtimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning jahon bozorida o'z xaridoriga ega bo'lishida, ijtimoiy ob'ektlar hamda turar-joy binolari barpo etishdek keng ko'lamli bunyodkorlik ishlarida qo'lga kiritilayotgan ulkan yutuqlarda aynan bank muassasalarining moliyaviy ko'magi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar natijasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlariga mikrokreditlar olish borasida bir qancha qulayliklar yaratildi.

Jumladan:

-Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining kreditlar ajratish haqidagati arizalarini ko'rib chiqish muddati uch bank ish kunidan oshmaydigan muddat qilib belgilandi;

-Tijorat banklariga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlariga kredit berishda kreditning umumiy summasida qarz oluvchining garov ta'minotini rasmiylashtirish bilan bog'liq harajatlarni hisobga olish huquqi berildi;

-Kichik biznes sub'yektlaridan tijorat banklarida milliy valyutada xisobvaraqa ochgani uchun to'lov undirish bekor qilindi;

Mikrokreditlar berishda aholini tadbirkor qilish maqsadida yaratiladigan ish o'rinlariga ko'ra imtiyozli foiz stavkalar o'rnatildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi sub'yektlarni erkin faoliyat yuritishi uchun tashkiletilgan paytdan 3 yil o'tmagunicha nazorat organlari tomonidan tekshirilmasligi sub'yektlarning va ularning hamkorlarini borib tekshirish bekor qilindi.

Mikrokreditdan foydalanishni ommalashtirish uchun ta'minotni 50 %i davlat organi tomonidan ta'minlab berilishi belgilandi.

2-jadval

**Kichik tadbirkorlik (biznes) ning iqtisodiyot va uning asosiy tarmoqlaridagi ulushi,<sup>11</sup> (foizda, 1 yanvar holatiga)**

	2011 y.	2012 y.	2013 y.	2014 y.	2015 y.	2016 y.
<b>YaIM</b>	<b>52,5</b>	<b>54,0</b>	<b>54,6</b>	<b>55,8</b>	<b>56,1</b>	<b>56,5</b>
Sanoat	18,8	21,9	23,1	28,1	31,7	40,6
Qishloq xo'jaligi	97,8	97,7	97,8	98,0	98,0	98,4
Qurilish	53,1	68,6	71,1	71,5	69,5	66,7
Savdo	85,1	86,7	87,3	86,6	86,3	87,1
Pullik xizmatlar	47,0	46,3	44,9	46,2	48,6	50,5
Jami xizmatlar	45,7	46,1	46,8	48,9	51,5	55,6
Yuk tashish	41,6	43,2	44,2	47,3	50,9	53,7
Yuk aylanmasi	76,6	78,9	81,2	82,8	83,4	83,7
Yo'lovchi tashish	79,4	81,8	83,1	84,5	85,5	87,3
Eksport	13,7	18,8	14,0	26,2	27,0	27,8
Import	35,8	34,3	38,6	42,4	45,4	44,5
Bandlik	74,3	75,1	75,6	76,7	77,6	77,9

Jadvalimizda kichik biznesning YaIMdagi ulushi yildan yilga o'sib borgan va 2010 yilga nisbatan o'sish 4,0 %ni tashkil qilganligi keltirilgan. Sanoatdagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushi keskin oshgan va 21,8 %ni tashkil etgan, qishloq xo'jaligida 0,6 % ga, savdoda 2,0% ga ko'tarilganligini ko'rishimiz

<sup>11</sup> [www.stat.uz](http://www.stat.uz)-Davlat Statistika Qo'mitasining yillik hisobotlari.

mumkin. Iqtisodiyotimizning boshqa sohalarida ham faqat o'sish tendensiyasini kuzatishimiz mumkin.

Yuqoridagi biz mikro kreditning paydo bo'lishi, rivojlanishi va uning huquqiy asoslari bilan tanishgan bo'lsak, ushbu bobda tijorat banklari mikro kreditlarning berish tartibi hamda tahlilini ko'rib o'tamiz.

Mikro kredit:

❖ Yuridik shaxs tashkil etmagan holda faoliyat yuritayotgan qarz oluvchilarga eng kam oylik ish haqining 200 baravarigacha;

❖ Yuridik shaxs tashkil etgan holda faoliyat yuritayotgan qarz oluvchilarga eng kam oylik ish haqining 300 baravarigacha miqdorda qaytarish muddatini uzaytirish huquqisiz beriladi.

Mikro kredit qarz oluvchiga kredit ajratilayotgan loyihaning o'zini-o'zi qoplashi hisobga olingan holda:

❖ Qarz oluvchi o'z faoliyatini boshlashi uchun aylanma mablag'larni shakllantirish va investitsiya loyihasining texnik-iqtisodiy asoslanishini ishlab chiqishga – 12 oy muddatgacha;

- Aylanma mablag'larni to'ldirishga – 18 oy muddatgacha;

- Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni tashkil etish uchun aylanma mablag'larni to'ldirishga – 24 oy muddatgacha beriladi.

Tijorat banklari kreditlar bo'yicha kreditlashning imtiyozli davrini belgilashlari mumkin.

Mikro kreditlar qarz oluvchilarga quyidagi maqsadlar uchun beriladi:  
- urug'liklar, mineral o'g'itlar va o'simliklarni kimyoviy himoya qilish vositalarini sotib olish, chorvachilik, quyon boqish, parrandachilik, baliqchilik va asalarichilikni rivojlantirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash bo'yicha ko'rsatiladigan texnik xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirish;

- yengil konstruksiyali va muqobil yoqilg'i manbalari hisobiga ishlaydigan issiqxonalarini qurish, meva-sabzavotchilikda ishlatiladigan qishloq xo'jalik texnikalari va mexanizmlarini sotib olish;

- bevosita ishlab chiqarish sohasi — mahsulotlar ishlab chiqarish, xom ashyo va materiallarni tubdan qayta ishlash, hunarmandchilikni rivojlantirish, kasanachilik mehnatini tashkil etish, binokorlik materiallari ishlab chiqarish va qurish;

- xizmatlar ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish — aholiga maishiy, tibbiy, sayyohlik-ekskursiya va mehmonxona xizmati ko'rsatish, avtomobillar va boshqa texnikalarni ta'mirlash bo'yicha xizmat ko'rsatish, transport xizmati ko'rsatishni rivojlantirish;

- yangi bog' va tokzorlarni barpo etish, ilg'or zamonaviy texnologiyalarni, shu jumladan tomchilatib sug'orish texnologiyalarini joriy etish.

Mikrokreditlar quyidagilarga berilmaydi:

- oldin olingan kredit yoki boshqa har qanday qarzlarni so'ndirish uchun;
- tamaki mahsuloti va alkogol ichimliklar ishlab chiqarish uchun;
- lotereya va qimor o'yinlar tashkil qilishga;
- ishlab chiqarish maqsadlarda ishlatilmaydigan shaxsiy mulk sotib olish uchun;
- ma'muriy chiqimlarni to'lashga, shu jumladan xizmat avtoulovlarga, uyali telefon va boshqa aloqa xizmatlari uchun beriladi.

Qishloq xo'jaligi korxonalariga davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan g'alla va paxta xom ashyosi yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirish uchun kreditlar berish qishloq xo'jaligi korxonalarining davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta va g'alla yetishtirish xarajatlarini tijorat banklari tomonidan kreditlash tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

Kreditdan foydalanganlik uchun foiz stavkasi miqdori kredit shartnomasiga muvofiq belgilanadi. Kreditlar ilgari olingan kreditlarni yoki tijorat banking "Kredit siyosati" da belgilangan boshqa qarzlarni qaytarish uchun berilishi mumkin emas. Qarz oluvchi kreditni muddatidan ilgari qaytarishga va ulardan haqiqatda foydalanilgan muddat uchun hisoblangan foizlarni to'lashga haqli.

Kreditlarni rasmiylashtirish:

Qarz oluvchi kredit olish uchun xizmat ko'rsatuvchi tijorat bankka quyidagi xujjatlarni taqdim etadi:


- Ariza;
- qarz oluvchining bank hisobvarag'iga pul tushumlari (pul oqimi) prognozi ko'rsatilgan holdagi biznes-reja;
- qarz oluvchining tegishli davlat soliq inspeksiyasiga taqdim qilgan oxirgi hisobot davri uchun buxgalteriya balansi (1-son shakl) va debitorlik hamda kreditorlik qarzlari to'g'risida ma'lumotnoma (2a-son shakl), 90 kundan ortiq muddatdagi qarzlarga doir solishtirish dalolatnomalari, moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot (2-son shakl), yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar, yuridik shaxs tashkil etmagan holda faoliyat yuritayotgan dehqon xo'jaliklari bundan mustasno;
- kredit ta'minoti turlaridan birortasi.

Qarz oluvchi kredit olish bo'yicha arizalarni elektron tizim orqali taqdim etishi mumkin. Tijorat banklari qarz oluvchilarga kredit berishda kreditning umumiy summasida qarz oluvchining garov ta'minotini rasmiylashtirish bilan bog'liq xarajatlarni hisobga olish huquqiga ega.

Qarz oluvchi bo'yicha Kredit axborotining davlat reestri va kredit byurolariga taqdim etilayotgan kredit axboroti ma'lumotlari tijorat bankining kredit yig'majildidagi kredit axborotiga mos bo'lishi lozim.

Qarz oluvchi tomonidan zarur hujjatlar taqdim qilingandan so'ng, uning arizasi "Arizalarni ro'yxatga olish kitobi"ga qayd qilinishi hamda bir vaqtning o'zida qarz oluvchiga ariza tijorat banki tomonidan qabul qilinganligi to'g'risida "Ma'lumotnoma" berilishi lozim. Bunda "Ma'lumotnoma"ning birinchi qismi tijorat bankida qoldiriladi, ikkinchi qismi esa, qarz oluvchiga taqdim etiladi. Qarz oluvchi "Ma'lumotnoma"ning birinchi qismini uni olganligi to'g'risidagi sanani ko'rsatgan holda imzolaydi.

Qarz oluvchilarning kredit olish bo'yicha elektron tizim orqali qabul qilingan arizalari ham "Arizalarni ro'yxatga olish kitobi"ga qayd qilinadi va arizaga "Elektron qabul qilindi" degan belgi qo'yiladi.



### **5-rasm. Mikrokreditlar berishda taqdim etiladigan ta'minot turlari<sup>12</sup>**

Tijorat banklari o'zlari bilan doimiy ravishda aloqaga ega, bank hisobvarog`ida muntazam pul oqimi mavjud, yaxshi obro va kredit tarixiga ega bo'lgan qarz oluvchilarga ta'minot talab qilmay blankli (ishonchli) kredit berish huquqiga ega.

Har qanday mol-mulk, shu jumladan ashyolar va mulkiy huquqlar (talablar) garov narsasi bo'lishi mumkin, muomaladan chiqarilgan mol-mulk, kreditorning shaxsi bilan bo'g'liq uzviy bog'liq bo'lgan talablar, xususan hayoti yoki sog'lig`iga yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi talablar, alimentlar to'g'risidagi talablar hamda boshqa shaxsga berilishi qonun bilan man etilgan boshqa talablar bundan mustasno.

Kredit hisobiga sotib olingan mulk ushbu kredit bo'yicha o'z qiymatining 80 foizi miqdorida garov narsasi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Kredit bo'yicha taqdim etilayotgan kafolat kafilning yozma majburiyati shaklida rasmiylashtiriladi.

---

<sup>12</sup> O'zbekiston Respublikasining 2006 yil 15 sentabrdagi O'RQ-50-sonli "Mikromoliyalash to'g'risida"gi Qonuni.

Kafillik shartnomasi yozma shaklda tuziladi. Qarz oluvchining arizasi kelib tushgan kundan boshlab, tijorat bankining kredit qo`mitasi tomonidan ushbu ariza bo`yicha asoslantirilgan holda qaror qabul qilish muddati 3 ish kunidan oshmasligi lozim.

Kredit berish to`g`risida ijobiy qaror qabul qilinganda, qarz oluvchi va tijorat banki o`rtasida kredit shartnomasi tuziladi.

Kredit shartnomasi tuzilgandan so`ng, keyingi kundan kechiktirmay tijorat banki rahbari yoki uning o`rinbosari tomonidan kreditning muddati, miqdori va foiz stavkasi ko`rsatilgan holda kredit hisobvarag`i ochish to`g`risida buxgalteriyaga farmoyish beriladi va ushbu farmoyishga asosan kredit hisobvarag`i ochiladi.

Kreditlar qarz oluvchiga alohida kredit hisobvarag`i ochish va uning to`lov topshiriqnomalariga muvofiq, ushbu hisobvaraqdan naqd pulsiz yoki naqd pul o`tkazish yo`li bilan beriladi.

Alohida kredit hisobvaraqlari bo`yicha berilgan kreditlar muddatli majburiyatlar bilan rasmiylashtiriladi, ular to`liq so`ndirilgunga qadar 91901-“Qarzdorlarning qisqa muddatli kreditlar bo`yicha majburiyatlari” hamda 91905-“Qarzdorlarning uzoq muddatli kreditlar va lizinglar bo`yicha majburiyatlari” balans hisobvaraqlarida hisobga olinadi.

Mikrokreditdan foydalanganlik uchun foiz stavkasi miqdori Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi darajasidan yuqori bo`lmagan miqdorda, bankning imtiyozli kreditlash jamg`armasi hisobidan mikrokredit ajratilgan taqdirda Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasining 50 foizi miqdorida belgilanadi.

Mikrokreditlar bo`yicha foiz stavkasi miqdori Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi o`zgarishiga qarab o`zgarishi mumkin. Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi oshirilgan taqdirda shartnomada ko`rsatilgan foiz stavkasi o`zgarishsiz qoldiriladi.

Mikrokreditlar yosh oilalarga quyidagi maqsadlarga beriladi:

- yuridik maqomiga ega bo`lmasdan oilaviy tadbirkorlikni tashkil qilishga;

- mikrofirma, kichik korxonalar, fermer xo'jaligi, shuningdek yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan dehqon xo'jaligini dastlabki (boshlang'ich) sarmoyasini shakllantirish uchun;

- yakka tartibdagi tadbirkorlik, mikrofirma, kichik korxonalar, dehqon va fermerlik xo'jaliklarni kengaytirish va rivojlantirish uchun.

Tadbirkorlik faoliyati uchun qarz oluvchi tomonidan ishlatiladigan iste'moldan tashqari har qanday buyum mikrolozning ob'yehti bo'lishi mumkin, shu jumladan korxonalar, mulk majmualari, binolar, inshootlar, mini-uskunalar, transport vositalari, boshqa ko'char va ko'chmas mulklar (yer maydonlari va boshqa tabiiy ob'ektlardan, shuningdek muomaladan chiqarilgan yoki muomalasi cheklangan mulklardan tashqari).

Qarz oluvchilarni "Imtiyozli kredit berish maxsus jamg'armasi" hisobidan mikro kreditlash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 19 maydagi «Tijorat banklari tomonidan kichik tadbirkorlikni rivojlantirishda qatnashishini rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 195-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Tijorat banklari tomonidan kichik tadbirkorlik sub'ektlariga, dehqon va fermer xo'jaliklariga Imtiyozli kredit berish maxsus jamg'armasi hisobidan kredit berish tartibi to'g'risida Nizom»ga muvofiq amalga oshiriladi.

Yosh oilalarga beriladigan mikro kreditlar bo'yicha imtiyozli foiz stavkasi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining amaldagi qayta moliyalashtirish stavkasidan oshmagan miqdorida belgilanadi.

Imtiyozli kredit berish maxsus jamg'armasi hisobidan mikro kreditlar berishda (shu jumladan yosh oilalarga, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilariga) mikro kreditdan foydalanish uchun olinadigan foiz stavkasi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining amaldagi qayta moliyalashtirish stavkasining 50 foizi miqdorida belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan bir qishloq xo'jaligi hisoblanadi. Milliy iqtisodiyotning qishloq xo'jaligi sektorini rivojlantirish O'zbekiston Respublikasi hukumati iqtisodiy siyosatining asosiy

yo`nalishlaridan biridir. Shu sababli, mamlakatimiz hukumati va Markaziy banki tomonidan real sektor korxonlarining faoliyatini moliyalashtirish va moliyaviy rag`batlantirishga katta e`tibor berilmoqda.

Xususan, inflatsiyasining sezilarli darajada pasayishi tijorat banklari kreditlari foiz stavkalarining pasayishiga va shuning asosida iqtisodiyotning real sektoriga ajratilayotgan kreditlar hajmining yuqori darajada oshishiga olib keldi. Tijorat banklarining kreditlari esa, qishloq xo`jaligi korxonalarining faoliyatini moliyalashtirishning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi.

2015 yil 14 martdagi "Tijorat banklari tomonidan shaxsiy yordamchi xo`jaliklarga qishloq xo`jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun mikrocreditlar berish tartibi to`g`risida"gi nizomga muvofiq, shaxsiy yordamchi xo`jaliklarga qishloq xo`jaligi mahsulotlari yetishtirish, qoramol, qo`y, echki, quyon boqish va yetishtirish, parrandachilik va asalarichilikni rivojlantirish, ixcham issiqxonalar tashkil etish, shuningdek urug` va ko`chatlar uchun eng kam ish haqining 100 baravarigacha miqdorda mikrocreditlar beriladi.

Mikrocreditlar olish uchun shaxsiy yordamchi xo`jaligi yurituvchi jismoniy shaxs yoki dehqon xo`jaligi boshlig`i tomonidan bankka quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- 1) chorvachilikni rivojlantirish uchun mikrocredit berishni so`rab ariza;
- 2) mahalla, qishloq, ovul fuqarolar yig`ini Kengashlarining ushbu mikrocredit oluvchi jismoniy shaxsga chorvachilikni rivojlantirish uchun bank tomonidan mikrocredit berilishiga tavsiyanomasi;
- 3) mikrocreditning qaytarilish ta`minoti haqidagi qonun hujjatlarida o`rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan hujjat.

Bundan tashqari, jismoniy shaxs yoki dehqon xo`jaligi boshlig`i o`z pasportini shaxsan ko`rsatadi va pasport nusxasi kredit yig`majildiga tikib qo`yiladi. Dehqon xo`jaligini davlat ro`yxatiga olinganligi to`g`risidagi ro`yxatga oluvchi organ tomonidan berilgan guvohnomaning nusxasi ham kredit yig`majildiga tikib qo`yilishi talab etiladi.

Mamlakatimiz aholisining 60 % dan ortig'ini yoshlar tashkil etishini hisobga olsak, ularni ish bilan ta'minlash eng muhim masalalardan biridir. Shu munosabat bilan 2016 yil 16 yanvarda "Tijorat banklari tomonida kasb-hunar kollejlari bitiruvchilariga mikrokreditlar berish tartibi to'g'risida"gi nizomning qabul qilinishi ko'pgina yosh tadbirkorlarni o'z bizneslarini yo'lga qo'yishlariga va bu orqali yangi ish o'rinlari yaratilishiga xizmat qildi. Tadbirkolik faoliyatini amalga oshirish uchun davlat ro'yxatida o'tgan yoki yuridik shaxs ustav fondida 50 foiz yoki undan ortiq aksiyaga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi kasb-hunar kollejlarida o'qishni yakunlagan kundan boshlab 3 yildan ortiq vaqt o'tmagan bitiruvchilar kreditlash sub'yektlari hisoblanadi.

Mikrokredit qarz oluvchiga kredit ajratilayotgan loyihaning o'zini-o'zi qoplashi hisobga olingan holda:

- faoliyatni boshlash uchun aylanma mablag'larni shakllantirishga, investitsiya loyihasining texnik-iqtisodiy asosini ishlab chiqishga — 12 oy muddatgacha;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlashni tashkil etish uchun aylanma mablag'larini to'ldirishga, shuningdek asbob-uskunalarni sotib olishga — 2 yil muddatgacha;

- investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun — 3 yildan ortiq muddatga beriladi.

Tijorat banklari hamda davlat maqsadli jamg'armalari kredit liniyalari hisobidan imtiyozli mikrokreditlar berish tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.


## **2.2. Tijorat banklari tomonidan mikrokreditlar berishning amaliy holati tahlili**

Tijorat banklari tomonidan mikrokreditlar ajratilishi bevosita ularning resurs bazasiga bo'g'liq bo'lib hisoblanadi. Banklarning kapitali va depozit mablag'larining yuqori sur'atlarda o'sishi, o'z navbatida, ularning iqtisodiyot real sektorini moliyaviy qo'llab-quvvatlashdagi rolining yanada kengayishiga, aktivlar

va kredit qo'yilmalari hajmining sezilarli darajada ko'payishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

So'nggi 5 yil davomida tijorat banklarining jami aktivlari 3,1 barobarga, iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilgan kredit qo'yilmalari umumiy qiymati esa 3,7 barobarga ko'paydi va bu holat bank tizimining iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishdagi rolining tobora oshib borayotganligini ko'rsatmoqda.

2015 yilda iqtisodiyot real sektorini moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun yo'naltirilgan uzoq muddatli kreditlar hajmi 2014 yildagiga nisbatan 27,7 foizga oshib, ularning tijorat banklari jami kredit portfelidagi salmog'i 79,8 foizni tashkil etdi.



**6–rasm. Tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlariga ajratilgan kreditlar va mikrocreditlar dinamikasi<sup>13</sup> (mlrd. so'mda)**


Xulosa qilib aytganda, tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlariga ajratilgan jami kreditlar 2016 yilda 15870 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2015 yilga nisbatan 1,3 barobarga oshgan. Shundan ajratilgan mikrocreditlar o'tgan 2015 yilga nisbatan qariyb 1,3 barobarga oshgan va qariyb 3326 mlrd. so'mni tashkil qilgan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab - quvvatlashni kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi ko'rsatilayotgan moliyaviy xizmatlar, jumladan, ajratilayotgan kreditlar hajmining

<sup>13</sup> www.cbu.uz-«2016 yilda Pul-kredit sohasidagi vaziyat va monetar siyosatning 2017 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari»

jadval sur'atlarda oshishida o'z aksini topmoqda.

Shundan "Ipoteka-bank" ATIB tomonidan ajratilgan mikro kreditlar quyidagi rasmda o'z aksini topgan.



**7-rasm. ATIB "Ipoteka-bank" Kichik biznesga ajratilgan mikro kreditlar<sup>14</sup>, (mlrd.so'm)**


Rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, "Ipoteka-bank" ATIB tomonidan ajratilgan mikro kreditlar 2016 yilda 207,7 mlrd.so'mni tashkil qilib, o'tkan yilga nisbatan 1,3 barobarga oshgan.

Biznes yuritish jumladan, bank faoliyatini amalga oshirish sharoitlarining yaxshilanishi va joriy etilgan imtiyozlarning ijobiy ta'siri natijasida 2016 yil mobaynida mazkur soha sub'ektlariga barcha moliyalash manbalari hisobidan ajratilgan kreditlar summasi 2015 yildagiga nisbatan 32,3 foizga oshib, 12,1 trln. so'mni tashkil etdi.

Hozirgi kunda Respublikamizdagi barcha tijorat banklari o'z kredit va mikro kreditlari bilan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarini tashkil etish va ular faoliyatini yanada kengaytirishga o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar.

Jumladan, ATIB "Ipoteka bank" tomonidan ajratilgan mikro kreditlarning tarmoqlar bo'yicha taqsimoti keltirilgan:

<sup>14</sup> [www.Ipotekabank.uz-Ipoteka-bank](http://www.Ipotekabank.uz-Ipoteka-bank) ATIB ning yillik hisobotlari




**8-rasm. ATIB “Ipoteka bank” tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan mikro kreditlarning tarmoqlar bo'yicha tarkibi,<sup>15</sup> (mlrd. so'm)**

Yuqorida keltirilgan rasm ma'lumotlariga ko'ra, ATIB “Ipoteka bank” tomonidan 2016-yil davomida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan mikro kreditlarning eng katta salmog'i aylanma mablag'larni to'ldirish uchun ajratilgan bo'lib, miqdori 122 mlrd. so'mga teng. Undan keyingi o'rinlarda qurilish va xizmat ko'rsatish hamda sanoat sohalariga ajratilgan kreditlar egallagan.


ATB ”Mikrokreditbank” misolida ko'radigan bo'lsak, kichik biznes va xususiy biznes sub'yektlariga ajratilgan jami kreditlar va mikro kreditlar nisbati quyidagi rasmda o'z aksini topgan:

<sup>15</sup> [www.Ipotekabank.uz-Ipoteka-bank](http://www.Ipotekabank.uz-Ipoteka-bank) ATIB ning yillik hisobotlari



**9-rasm. ATB “Mikrocreditbank” tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan jami kreditlar va mikrokreditlar dinamikasi,<sup>16</sup> (mlrd. so'm)**

Banklar tomonidan yoshlarni, ayniqsa kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish, ularning biznes loyihalarini moliyaviy qo'llab - quvvatlashga ham jiddiy e'tibor qaratilib qator imtiyozlar berilmoqda.




**10-rasm. Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilariga ajratilgan mikrokreditlar<sup>17</sup> (mlrd. so'm)**

<sup>16</sup> [www.mikrocreditbank.uz](http://www.mikrocreditbank.uz)-Mikrocreditbank ATB sayti

<sup>17</sup> [www.mikrocreditbank.uz](http://www.mikrocreditbank.uz)-Mikrocreditbank ATB sayti

Yuqoridagi rasm shuni ko'rsatadiki, o'tgan yili mazkur yo'nalishga ajratilgan mikro kreditlar 277,8 mlrd. so'mni tashkil etdi yoki 2015-yilga nisbatan qariyb 1,4 barobar o'sishi ta'minlandi. Bir yilda bu ko'rsatkichning shu darajada oshishi yurtimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka shu jumlada, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilariga katta ahamiyat berilayotganidan dalolat beradi.

Ayollarning iqtisodiyotning turli tarmoqlari va sohalaridagi faoliyatini munosib rag'batlantirish uchun va tadbirkorlikka yanada kengroq jalb etish uchun ATB "Mikrokreditbank" doimiy ravishda mikro kreditlar ajratib kelmoqda.



**11-rasm. ATB "Mikrokreditbank" tomonidan ayol tadbirkorlarga ajratilgan mikro kreditlar dinamikasi,<sup>18</sup> (mlrd. so'm)**

ATB "Mikrokreditbank" tomonidan 2016-yilda ayol tadbirkorlarga ajratilgan mikro kreditlar summasi 90.2 mlrd. so'mga teng bo'lib, bu o'tgan 2015-yilga nisbatan 20% ga oshgan. Buning natijasida 10 mingtaga yaqin yangi ish o'rinlari yaratildi.

## **2-bob bo'yicha xulosa**

2-bobdan shuni xulosa qilish mumkinki, tijorat banklari tomonidan mikro kreditlar berish tartibi amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

<sup>18</sup> [www.mikrokreditbank.uz](http://www.mikrokreditbank.uz)-Mikrokreditbank ATB sayti

Mikrokredit qarz oluvchiga kredit ajratilayotgan loyihaning o'zini-o'zi qoplashi hisobga olingan holda aylanma mablag'larni to'ldirishga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni tashkil etish uchun aylanma mablag'larni to'ldirishga beriladi. Mikromoliyalash subyektlari banklar, mikrokredit tashkilotlari, lombardlar bo'lishi bilan birga, shulardan tijorat banklari mikrokreditlar ajratish bo'yicha yetakchilik qilib kelmoqda.

Kreditlarni rasmiylashtirishda qarz oluvchi ariza bilan birgalikda bir qancha hujjatlar bilan bankka murojaat qiladi. Ariza 3 ish kuni davomida ko'rib chiqiladi. Undan so'ng majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida ta'minot turlaridan biri taqdim etiladi. Kredit hisobiga sotib olingan mulk ushbu kredit bo'yicha o'z qiymatining 80 foizi miqdorida garov narsasi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Hujjatlar ko'rib chiqilib, kredit berish to'g'risida ijobiy qaror qabul qilinganda, mijoz va bank o'rtasida kredit shartnomasi tuziladi va kreditning muddati, miqdori hamda foiz stavkasi belgilanadi. Shundan so'ng mijozga kredit hisobvarag'i ochilgan holda kreditlar naqd pul yoki naqd pulsiz shaklda shu hisobvaraقدan o'tkazib beriladi.

Tijorat banklari bank hisobvarog'ida muntazam pul oqimi mavjud, yaxshi obro va kredit tarixiga ega bo'lgan qarz oluvchilarga ta'minot talab qilmay blankli (ishonchli) kredit berish huquqiga ega.

Mikrokreditlar oldin olingan kredit yoki boshqa har qanday qarzlarni so'ndirish uchun, tamaki mahsuloti va alkogol ichimliklar ishlab chiqarish uchun, lotereya va qimor o'yinlar tashkil qilishga va boshqa qonunga zid bo'lgan maqsadlarga berilmaydi.

Mikrokreditlar bo'yicha foiz stavkasi Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasidan yuqori bo'lmagan miqdorda beriladi va qayta moliyalash stavkasining o'zgarishiga qarab foiz ham o'zgarishi mumkin.

Tijorat banklari tomonidan mikrokreditlar berilishini tahlil qiladigan bo'lsak, so'nggi yillarda tijorat banklarining jami aktivlari 3,1 barobarga, iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilgan kreditlar hajmi esa 3,7 barobarga oshganini ko'rish

mumkin. Bu esa mamlakatimiz banklari faoliyatining barqarorlashayotganligidan dalolat beradi.

Xususan Bank tomonidan ajratilgan kreditlar umumiy hajmi esa 2016 yilda 2011 yilga nisbatan 5 barobarga ko'payganini kuzatish mumkin. Shundan kichik biznesga ajratilgan mikrokreditlar 2016 yilda 207,7 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2015 yilga qaraganda, 1,3 barobarga oshgan.

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlariga ajratilgan jami kreditlar 2016 yilda 15870 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2015 yilga nisbatan 1,3 barobarga oshgan. Shundan ajratilgan mikrokreditlar o'tgan 2015 yilga nisbatan qariyb 1,3 barobarga oshgan va qariyb 3326 mlrd. so'mni tashkil qilgan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab - quvvatlashni kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi ko'rsatilayotgan moliyaviy xizmatlar, jumladan, ajratilayotgan kreditlar hajmining jadal sur'atlarda oshishida o'z aksini topmoqda.

“Ipoteka-bank” ATIB tomonidan ajratilgan mikrokreditlar 2016 yilda 207,7 mlrd.so'mni tashkil qilib, o'tkan yilga nisbatan 1,3 barobarga oshgan.

ATB “Mikrokreditbank” tomonidan 2016-yilda ayol tadbirkorlarga ajratilgan mikrokreditlar summasi 90.2 mlrd. so'mga teng bo'lib, bu o'tgan 2015-yilga nisbatan 20%ga oshgan. Buning natijasida 10 mingtaga yaqin yangi ish o'rinlari yaratildi.

### **3-BOB. TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MIKROKREDITLASHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI**

#### **3.1. Tijorat banklari tomonidan mikrokreditlash bilan bog'liq muammolar**

Bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari nafaqat iqtisodiyotni o'sish sur'atlarini jadallashtirishda, balki mamlakatimiz uchun nihoyatda muhim bo'lgan bandlik va aholi daromadlarini oshirish masalalarini xal etishda ham yetakchi o'rin tutmoqda. Bunga ko'p jihatdan huquqiy bazani mustaxkamlangan, iqtisodiyotning mazkur sektori uchun barqaror qulaylik, imtiyoz va kreditlar tizimini shakllantirish masalalariga jiddiy e'tibor berilayotgani fikrimizning yaqqol tasdig'idir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Xukumati tomonidan keyingi yillar davomida qabul qilingan qator farmon va qarorlari natijasida mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini rag'batlantirish, ko'maklashish va yangi biznes muximtni barpo etish - ustivor yo'nalishlarning asosiy mazmuniga aylandi.

Haqiqatdan ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining bugung kunda mamlakatimizdagi ahamiyati beqiyos. Chunki bu soha mamlakatimizning mikro darajadagi korxonalar ish faoliyatini davom ettirish va kengaytirish, shuningdek cheka-cheka qishloqlardagi aholini ish bilan ta'minlashga yordam beradi. Natijalar shuni ko'rsatadiki har bir mikrokredit o'zi bilan ikkita yangi ish o'rin yaratishi bugun yaqqol ko'rinib turibdi. Afsuski bugungi kunda mikromoliyaviy xizmatlar bozorini to'la quvvat bilan ishlab ketishi va bu sektorni rivojlantiish uchun bir kancha muammolar mavjuddir.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlarga quyidagi muammo va kamchiliklar mavjud bo'lgani sababli murojaat qilmoqdalar.

- Korxonalarni kapitallashtirish darajasining pastligi;
- Menenjment va marketingni mukammal tashkil etishning cheklanganligi;

- Yirik biznes sub'ektlariga yuqori darajada qaramlik;
- Ma'muriy tekshirish va nazoratning saqlanib qolayotganligi;
- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining moliyaviy imkoniyatlarining cheklanganligi;
- Kichik korxonalarining raxbarlarining malakasi yetarli darajada emasligi;
- Tovar va xizmatlar bo'yicha raqobatbardoshlikning past darajadaliigi;
- Ko'plab boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga bo'lgan ishonchsizligi.

Bundan tashqari tadbirkorlik sub'yektlarini mikroreditlashda bilan bog'liq muammolarga quyidagi bir qancha omillarni misol qilishimiz mumkin.

Tijorat banklari kichik biznes sub'yektlarini kreditlashda asosiy e'tiborni yuqori likvidli garov ob'yektlarining mavjudligiga qaratishadi. Bu esa kichik biznes sub'yektlarining kreditlash hajmini yanada oshirishga yanada to'sqinlik qilmoqda. Chunki banklar talab qilayotgan yuqori likvidli garov ob'yektlari kichik biznes sub'yektlarining ko'pchiligida mavjud emas.

2016 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, kichik biznes sub'yektlarining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 56,7 foizni tashkil etgani holda, ularga berilgan kreditlarning jami kreditlar xajmidagi salmog'i 26,3 foizni tashkil etdi. Bu esa berilayotgan kreditlarni kichik biznes sub'yektlarining ehtiyojlariga monand emasligini ko'rsatadi.

Shuningdek, iqtisodiyotning pul mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasining nisbatan past ekanligi (2016 yil 1 yanvar holatiga 24,0%) kichik biznes sub'yektlarining pul oqimi barqarorligiga nisbatan salbiy ta'sirini yuzaga keltiradi.

Mikroreditlash amaliyotidagi muammolardan yana biri – bu tijorat banklari tomonidan arzon resurs jalb etish muammosidir.

Tijorat banklari kichik biznes sub'yektlariga nisbatan past foiz stavkalarida kreditlar berishlari uchun bahosi past bo'lgan resurslarni bankka jalb etishlari lozim.

Taraqqiy etgan mamlakatlarning bank amaliyotida aholining omonatlari

arzon resurs manbai hisoblanadi. Ammo respublikamiz banklari uchun aholi omonatlari arzon resurs manbai emas. Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining yillik darajasi 9% bo'lgani holda, respublikamizning yirik tijorat banklarida aholining muddatli omonatlari bo'yicha foiz stavkasi 14-18% darajasida bo'lmoqda.

Tadbirkorlik sub'yektlarining aksariyat qismida pul oqimining zaifligi ularni garovsiz kreditlash imkonini bermaydi. Yuqori likvidli garov ob'yektlari esa ularning balansida mavjud emas. Bunday sharoitda sug'urta kompaniyalarining su'gurta polisi tijorat banklari kreditlari uchun ta'minot vazifasini o'tash mumkin. Ammo respublikamiz tijorat banklarining sug'urta kompaniyalariga nisbatan ishonch darajasini yuqori deb bo'lmaydi.

Kichik biznes sub'yektlarini banklar va nobank kredit tashkilotlari tomonidan kreditlashning uslubiy asoslari takomillashmagan. Xususan, banklar tomonidan kreditlashning uslubiy asoslari qaysi tamoyillarga tayanishi, ularning nobank kredit tashkilotlari tomonidan kichik biznes sub'yektlarini kreditlash tamoyillaridan farq qiluvchi jihatlari amaldagi qonunchilik xujjatlarida o'z ifodasini topmagan.

Tijorat banklarida kichik biznes sub'yektlari kredit tarixining shakllantirish jarayonining nihoyasiga yetkazilmaganligi, ularning individual reytingi asosida kredit riskining baholash imkonini bermayapti. Har bir kichik biznes sub'yekti bo'yicha kredit tarixining shakllantirilishi kichik biznes sub'yektlarining individual reytingi asosida ularga berilgan kreditlarning risk darajasini aniqlash imkonini yuzaga keltiradi, kichik biznes sub'yektlariga beriladigan garovsiz, ya'ni ishonchli kreditlar hajmini oshirish imkonini beradi.

Banklar tomonidan kichik biznes sub'yektlarini mikrokreditlashda asosan bir martalik kreditlash shaklidan foydalanilmoqda. Kichik biznes sub'yektlariga kreditlar berishda kreditlashning kredit liniyasi ochish yo'li bilan kreditlash, overdraft, kontokorrent va forfeyting shakllaridan foydalanish yo'lga qo'yilmagan.

Kichik biznes sub'yektlari faoliyatining rivojlanishiga salbiy ta'sir etayotgan muammolardan biri –“Doimiy tekshirishlar, moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga

noqonuniy aralashuvlar oqibatida tadbirkorlar o'z ishini vaqtinchalik to'xtatishga, ayrim hollarda esa umuman to'xtatishga majbur bo'lmoqda. Litsenziya va ruxsatnomalar berish jarayoni oylab cho'zilishi tufayli fuqarolar tadbirkorlik bilan noqonuniy tarzda shug'ullanishiga o'zimiz zamin yaratmoqdamiz"<sup>19</sup> deb ta'kidlanganligi tadbirkorlik sub'yektlarini doimiy tekshirish singari muammosining yechimi bo'ldi.

### **3.2. Tijorat banklari tomonidan mikroreditlashni takomillashtirish**

Milliy iqtisodiyotning barqaror va mutanosib rivojlanishi ko'plab omillar qatorida mamlakatdagi bank-moliya tizimi faoliyatining samaradorligiga, xususan, tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy mablag'lar bilan yetarli darajada ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarning samarasiga bog'liq. Respublika moliya-bank tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va barqarorligini oshirish, banklar va butun moliya-bank tizimi faoliyatiga yondashuvlarni hamda baholash tizimini tubdan o'zgartirish, hamma tomonidan qabul qilingan xalqaro normalar, standartlar va baholash ko'rsatkichlariga muvofiq bank faoliyatini tashkil etishning yanada yuqoriroq darajasiga chiqishni ta'minlash hozirgi kundagi moliya-bank tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Bu esa respublikaning moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirishning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi. Bu borada mamlakatimiz rahbari o'zlarining qonunchilik tashabbuslari bilan chiqqan ma'ruzalarida «Sizlarga yaxshi ma'lumki, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida mamlakatimiz moliya-bank tizimi o'zining barqaror va ishonchli ekanini isbotladi. Shu bilan birga, bu tizimning yanada mustahkamlanishi xususiy banklar va xususiy mulkka asoslangan lizing, sug'urta kompaniyalari, mikromoliyaviy tashkilotlar kabi moliyaviy institutlarni tashkil etishning qonunchilik asoslarini shakllantirish hisobidan bank-moliya sohasiga xususiy kapitalni jalb qilish bilan

---

<sup>19</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Tadbirkorlik va ishbilarmonlar harakati-O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining 8-syezdidagi "Demokratik islohotlarni izchil davom ettirish, xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot darajasini yaratish – barqaror taraqqiyot kafolatidir" mavzusidagi ma'ruzasi.

ham bog'liq. Bu esa bank va boshqa moliyaviy xizmatlar bozorida raqobatning kengayishi hamda mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatining oshishiga imkon beradi va eng yuksak xalqaro standartlar talabiga mos zamonaviy bozor infratuzilmasining rivojlanishi uchun sharoit yaratadi»<sup>20</sup> deb ta'kidlagan edilar. Mamlakatimiz bank tizimini takomillashtirish, xususan, mikromoliyaviy tashkilotlar, ularning barqarorligi va likvidligini yanada mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida soha faoliyat ko'rsatkichlari sezilarli darajada o'sib bormoqda.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng barcha sohalar kabi ushbu soha ham nazardan chetda qolmadi. Chunki mikromoliyaviy xizmatlar bozorini qo'llab-quvvatlash orqali mikromoliyaviy xizmatlarga muhtoj bo'lgan fuqarolar va tadbirkorlik sub'ektlariga o'zlarining tadbirkorlik faoliyatlarini amalga oshirish imkoniyatlari vujudga keldi.

Hozirda banklar bundan keyin o'z ish uslublarini o'zgartirishi shartligini, ular har bir oila bilan muloqot tashkil qilish orqali fuqarolarning tadbirkorlik bilan shug'ullanishi uchun qulay imkoniyatlar yaratishi kerakligi ta'kidlanmoqda.

Ana shu vazifadan kelib chiqib, 2017 yilda aholini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish banklar faoliyatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Bank tizimida mazkur vazifalar ijrosini ta'minlashga jiddiy kirishildi. Jumladan, aholiga kredit berishning soddalashtirilgan tartibi joriy qilindi. Shu kunlarda bank xodimlari tomonidan aholi xonadonlarida o'tkazilayotgan muloqotlarda tadbirkorlik faoliyatini boshlash imkoniyatlari to'g'risida batafsil tushuntirishlar berilmoqda, qisqa muddatda kredit mablag'lari ajratish choralari ko'rilmoqda. Bunda aholiga chorvachilik, parrandachilik, asalarichilik, quyonchilik, issiqxonalar qurish, maishiy xizmat kabi 20 dan ziyod yo'nalishda tadbirkorlik qilish uchun kreditlar taklif etilmoqda.

Olib borilgan tushuntirish va targ'ibot ishlari natijasida mindan ziyod fuqarolar tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish istagini bildirgan. Natijada

---

<sup>20</sup> Karimov I.A. "Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida". – Toshkent: O'zbekiston, 2011 yil. – 516 bet.

chorvachilik, parrandachilik, asalarichilik, quyonchilik, issiqxonalar faoliyati, hunarmandlik kabi sohalarda ko'plab yangi ish o'rinlari yaratilishiga erishildi.

O'z navbatida, yuqorida qayd etilgan muammolarni hal qilish maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

1. Kichik biznes sub'yektlarida yuqori likvidli garov ob'yektlarining yetishmasligini hisobga olib, ularni lizing va qaytariladigan lizing asosida kreditlashga e'tiborni kuchaytirish lozim.

Buning uchun, birinchidan, tijorat banklarining kichik biznes sub'yektlariga berilgan lizing kreditlaridan oladigan daromadi foyda solig'idan ozod qilinishi lozim; ikkinchidan, lizing ob'yektining o'zi to'la qiymatda garov ob'yekti sifatida qabul qilinishi zarur (qo'shimcha ta'minot turi talab qilinmasligi lozim); uchinchidan, lizing ob'yektiga hisoblangan amortizatsiya ajratmasi real qiymatining pasayishiga yo'l qo'ymaslik lozim.

2. Kichik biznes sub'yektlarining pul oqimi barqarorligini ta'minlash maqsadida, birinchidan, ular debitor qarzdorligini aylanish koeffitsientining darajasini ushbu sub'yekt faoliyat ko'rsatayotgan tarmoqdagi o'rtacha ko'rsatkichdan past bo'lmasligini ta'minlash lozim; ikkinchidan, kichik biznes sub'yektlariga tijorat veksellarini emissiya qilish huquqini berish lozim; uchinchidan, Markaziy bank tomonidan kichik biznes sub'yektlari tomonidan chiqarilgan tijorat veksellari asosida tijorat banklarini selektiv kreditlash amaliyoti yo'lga qo'yilishi lozim.

3. Tijorat banklari tomonidan kichik biznes sub'yektlariga beriladigan past foizli kreditlar hajmini oshirish maqsadida, birinchidan, banklarning ustav kapitalida davlatning ulushini, ushbu resurslarning kichik biznes sub'yektlarini imtiyozli kreditlashga yo'naltirish sharti bilan oshirish lozim; ikkinchidan, pensiya fondi va davlat sug'urta kompaniyalarining bo'sh pul mablag'larini tijorat banklariga past foiz stavkalarida, ularning kichik biznes sub'yektlarini kreditlashga yo'naltirish sharti bilan, past foiz stavkalarida muddatli depozit qilib joylashtirish kerak.

4. Kichik biznes sub'yektlarining kredit to'loviga layoqatliligini aniqlash bo'yicha alohida metodika ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Respublikamiz banklarida kichik biznes sub'yektlarining kredit to'loviga layoqatliligini baholashning maxsus, alohida metodikasi mavjud emas. Holbuki, kichik biznes sub'yektlarning aktivlari va majburiyatlari tarkibi, moliyaviy natijalarining shakllanishi yirik korporativ mijozlarnikidan sezilarli darajada farq qiladi. Bundan tashqari, tijorat banklarida mijozlarning kredit to'loviga layoqatliligi faqat beshta (uchta asosiy va ikkita qo'shimcha) moliyaviy koeffitsient orqali aniqlanadi. Ya'ni, xalqaro bank amaliyotida keng qo'llanilayotgan metodikalarhozirga qadar respublikamiz banklari amaliyotiga joriy etilmagan.

5. Tijorat banklari tomonidan kichik biznes sub'yektlariga berilgan kreditlarning foiz stavkalarini bonifikatsiya qilishni joriy etish masalasini o'ylab ko'rish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek mikromoliyaviy xizmatlar bozorini rivojlantirish borasida amalga oshiriladigan ishlar natijasida quyidagilarga erishildi:

- Mehnatga yaroqli aholining ish bilan band bo'lmagan qismini, asosan qishloqda yashayotgan xotin-qizlar va yoshlarni ijtimoiy-foydali mehnatga jalb qilishga va shu tariqa ishsizlikni kuchayib borish xavfini barxam berish;

- Aholining real daromadlarini oshirishga, shuningdek, shartnomalar asosida qishloq xo'jalik mahsuloti yetishtirish bilan shug'ullanib kelganlarga mehnat daftarchalari berish hamda ular qariganda nafaqa olish huquqini berish bilan ko'pgina qishloq aholisi uchun ijtimoiy kafolatlarni mustahkamlash;

- Aholini hayotiy muhim oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashdagi keskinlikka barxam berishga va yer uchastkalari olgan oilalar kartoshka, sabzavot, meva, chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan o'z ehtiyojlarini qondiribgina qolmay, balki ularni sotish hajmini ko'paytirib, oziq-ovqat muammosini hal qilish.

Amaldagi me'yoriy hujjatlarda kichik biznes sub'yektlarini tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlash tartibi o'zining aniq ifodasini topgan. Ammo, tijorat banklariga imtiyozli kredit berganligi uchun faqat soliq imtiyozi qo'llanilmoqda. Ya'ni, tijorat banklarining Imtiyozli kreditlash fondi mablag'lari

hisobidan berilgan imtiyozli kreditlaridan olgan foizli daromadlari soliqqa tortilmaydi. Bu juda muhim moliyaviy imtiyoz hisoblanadi.

Shundan kelib chiqqan holda, kichik biznes sub'ektlari loyihalarini moliyalashtirishda xalqaro moliya institutlari kredit liniyalarini jalb etishni takomillashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish alohida ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari moliyaviy barqarorligini ta'minlashda davlat boshqaruv organlari va tijorat banklari tomonidan quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

- tijorat banklarining kapitallashuv darajasini oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni belgilab, ular bo'yicha ishlarni amalga oshirib borish, mamlakatda banklarning kreditlash imkoniyatlarini kengaytirib borish lozim;

- kichik biznes sub'ektlarini davlat tomonidan ro'yxatga olishning yanada takomillashgan mexanizmini joriy etish;

- respublikamiz yirik tijorat banklari kredit portfeli tarkibida kichik biznes sub'ektlari faoliyatiga yo'naltiriladigan kreditlar hajmini yanada oshirishga erishish lozim;

- axborot xizmatlari ko'rsatishni takomillashtirish, "innovatsion iqlim"ni yaratish;

- pul-kredit, narx va valyuta siyosati vositalarini qamrab olgan qulay makroiqtisodiy muhitni yaratish ham ustuvor yo'nalishlardandir. Bu sohadagi muammolarning echimini topish tadbirkorlarga moliyaviy yordam berish mexanizmining rivojlanishi uchun xizmat qiladi.

Bunda ichki kredit manbalarini safarbar etish chora-tadbirlari bilan birgalikda xorijiy sarmoyalarni rag'batlantirishga xizmat qiladigan qulay muhit yaratish, chet el kredit liniyalarini jalb etish va ularni maqsadli o'zlashtirish, eng asosiysi bu ishlarning ma'lum iqtisodiy samarasiga erishish masalasi biz uchun o'ta muhim strategik ahamiyatga ega.

### **3-bob bo'yicha xulosa**

Ushbu bob bo'yicha shuni xulosa qilish mumkinki, bugungi kunda xususiy sektorning ulushi tobora ortib bormoqda. Mamlakatimizning iqtisodiy taraqqiyoti, iqtisodiy mustaqilligi, xalqning farovon turmush darajasi, shuningdek, mehnat resurslarining ish bilan bandlik darajasi bevosita kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivoji bilan bog'liq.

Moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyati odamlarning tadbirkorlik salohiyatini kuchaytirib, u iqtisodiyot va biznesning shaffofligini oshirish usuli hamdir. Yurtimizda ham o'zining turmush farovonligini yaxshilashga harakat qiluvchi kam ta'minlangan aholi qatlamini qo'llab-quvvatlash bo'yicha ma'lum tajribalar to'plangan.

Kichik biznes sohasining iqtisodiyotdagi ahamiyati uning iqtisodiyotda raqobat muhitini ta'minlash, yirik korxonalar uchun mahsulot va xizmatlar yetkazib berish, yangi ish o'rinlarini yaratish va ikkilamchi bandlikni ta'minlash, bozor tizimining moslashuvchanligini oshirish, ilmiy-taxnikaviy inqilobni jadallashtirish, resurslarni ishlab chiqarishga safarbar etish, soliq tushumlari hajmining o'sishini ta'minlash, aholi daromadlari darajasini barqarorlashtirish kabi rivojlanish omillari bilan belgilanadi. Banklar tomonidan kichik biznes sub'yektlarini mikrokreditlashda asosan bir martalik kreditlash shaklidan foydalanilmoqda. Kichik biznes sub'yektlariga kreditlar berishda kreditlashning kredit liniyasi ochish yo'li bilan kreditlash, overdraft, kontokorrent va forfeyting shakllaridan foydalanish yo'lga qo'yilmagan.

Bu borada Respublikamizda olib borilayotgan tub islohotlar samara bermoqda. Biroq kichik tadbirkorlikni rivojlantirishda va

ularni moliyalashtirishda hali bir qator muammolar ham mavjud.

Ular quyidagilar:

- Tijorat banklari tomonidan kichik biznes sub'yektlarini kreditlashda asosiy e'tibor yuqori likvidli garov ob'yektlariga qartilishi;
- tijorat banklari tomonidan arzon resurs jalb etish muammosi;
- Kichik biznes sub'yektlarini banklar va nobank kredit tashkilotlari tomonidan kreditlashning uslubiy asoslari takomillashmaganligi;
- Aholining tadbirkorlik salohiyatining pastligi;
- Tadbirkorlik faoliyatida doimiy tekshirishlar, moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga noqonuniy aralashuvlar.

Yuqorida qayd etilgan muammolarni hal qilish maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- debitor qarzdorligini aylanish koeffisientining darajasini ushbu sub'yekt faoliyat ko'rsatayotgan tarmoqdagi o'rtacha ko'rsatkichdan past bo'lmasligini ta'minlash;
- tijorat banklari kredit portfelida kichik biznesga yo' naltirilayotgan kreditlar hajmini oshirish choralarini izlash;
- kichik biznes sub'yektlarining kredit to'loviga layoqatliligini aniqlash bo'yicha alohida metodika ishlab chiqish;
- aholini tadbirkorlik sohasidagi bilimlarini rivojlantirish, ularga bank kreditlaridan foydalangan holda ish boshlashlari haqida maslahatlar berish, konsalting xizmatlarini joriy etish va boshqalar.

Ushbu takliflarning qo'llanilishi iqtisodiyotning rivojlanishiga olib kelib, aholini ish bilan ta'minlash imkonini yaratadi.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish davrida tijorat banklarining mikromoliyalash faoliyati kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda aholi turmush tarzini oshirib borishda yetakchi o'rin egallab kelmoqda.

Mikromoliyalash-bu mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlarning qonun hujjatlarida belgilangan miqdordan oshmaydigan summada mikrokredit, mikroqarz, mikrolizing berish, shuningdek mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish to'g'risidagi shartnomaga muvofiq boshqa xizmatlar ko'rsatish borasidagi faoliyatidir. Mikromoliyalash xizmatlari – bu kredit shartnomaga muvofiq, yig'indisi qonun hujjatlarida belgilangan miqdoridan oshmagan mikroqarz, mikrokredit yoki mikrolizing taqdim qilish bo'yicha bank xizmati"dir.

Mikrokredit qarz oluvchiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun eng kam ish haqining ming baravari miqdoridan oshmaydigan summada to'lovlilik, muddatlilik va qaytarish shartlari asosida beriladigan pul mablag'lari bo'lib, mamlakatdagi sohalarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. U iqtisodiyotni rivojlantirish, ishsizlik darajasini kamaytirish, aholi o'rta qatlamini oshishi hamda xususiy mulkchilikni rivojlanishini rag'batlantiradi.

BMI mavzusini o'rganish davomida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

- Tijorat banklari kichik biznes sub'yektlarini kreditlashda asosiy e'tiborni yuqori likvidli garov ob'yektlarining mavjudligiga qaratishmoqda. Bu esa kichik biznes sub'yektlarining kreditlash hajmini yanada oshirishga yanada to'sqinlik qilmoqda;
- iqtisodiyotning pul mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasining nisbatan past ekanligi kichik biznes sub'yektlarining pul oqimi barqarorligiga nisbatan salbiy ta'sirini yuzaga keltiradi;
- Tijorat banklari kichik biznes sub'yektlariga nisbatan past foiz stavkalarida kreditlar berishlari uchun bahosi past bo'lgan resurslarni bankka jalb etishlari lozim;

- Kichik biznes sub'yektlarini banklar va nobank kredit tashkilotlari tomonidan kreditlashning uslubiy asoslari takomillashmagan;
- Tijorat banklarida kichik biznes sub'yektlari kredit tarixining shakllantirish jarayonining nihoyasiga yetkazilmaganligi, ularning individual reytingi asosida kredit riskining baholash imkonini bermayapti;
- Banklar tomonidan kichik biznes sub'yektlarini mikrokreditlashda asosan bir marotabali kreditlash shaklidan foydalanilmoqda. Kichik biznes sub'yektlariga kreditlar berishda kreditlashning kredit liniyasi ochish yo'li bilan kreditlash, overdraft, kontokorrent va forfeyting shakllaridan foydalanish yo'lga qo'yilmagan.

Yuqoridagi xulosalar asosida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun quyidagi takliflarni keltiramiz:

1. Kichik biznes sub'yektlarida yuqori likvidli garov ob'yektlarining yetishmasligini hisobga olib, ularni lizing va qaytariladigan lizing asosida kreditlashga e'tiborni kuchaytirish lozim.

Buning uchun, birinchidan, tijorat banklarining kichik biznes sub'yektlariga berilgan lizing kreditlaridan oladigan daromadi foyda solig'idan ozod qilinishi lozim; ikkinchidan, lizing ob'yektining o'zi to'la qiymatda garov ob'yekti sifatida qabul qilinishi zarur(qo'shimcha ta'minot turi talab qilinmasligi lozim); uchinchidan, lizing ob'yektiga hisoblangan amortizatsiya ajratmasi real qiymatining pasayishiga yo'l qo'ymaslik lozim.

2. Kichik biznes sub'yektlarining pul oqimi barqarorligini ta'minlash maqsadida, birinchidan, ular debitor qarzdorligini aylanish koeffisientining darajasini ushbu sub'yekt faoliyat ko'rsatayotgan tarmoqdagi o'rtacha ko'rsatkichdan past bo'lmasligini ta'minlash lozim; ikkinchidan, kichik biznes sub'yektlariga tijorat veksellarini emissiya qilish huquqini berish lozim; uchinchidan, Markaziy bank tomonidan kichik biznes sub'yektlari tomonidan chiqarilgan tijorat veksellari asosida tijorat banklarini selektiv kreditlash amaliyoti yo'lga qo'yilishi lozim.

3. Tijorat banklari tomonidan kichik biznes sub'yektlariga beriladigan past foizli kreditlar hajmini oshirish maqsadida, birinchidan, banklarning ustav kapitalida davlatning ulushini, ushbu resurslarning kichik biznes sub'yektlarini imtiyozli kreditlashga yo'naltirish sharti bilan oshirish lozim; ikkinchidan, pensiya fondi va davlat sug'urta kompaniyalarining bo'sh pul mablag'larini tijorat banklariga past foiz stavkalarida, ularning kichik biznes sub'yektlarini kreditlashga yo'naltirish sharti bilan, past foiz stavkalarida muddatli depozit qilib joylashtirish kerak.

4. Kichik biznes sub'yektlarining kredit to'loviga layoqatliligini aniqlash bo'yicha alohida metodika ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu takliflar mamlakatimiz mikromoliyalash imkoniyatini kengaytirib, turli mulkchilik shakllarining paydo bo'lishi va aholini boyishiga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### I. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.- T.Sharq, 1992 yil.
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi.
3. O'zbekiston Respublikasining 1995 yil 21 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi Qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 25-aprelda "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni.
5. O'zbekiston Respublikasining "Kredit axboroti almashinuvi to'g'risida"gi Qonuni, 2011-yil 11-avgust.
6. O'zbekiston Respublikasining 2006 yil 15 sentabrda O'RQ-50-sonli "Mikromoliyalash to'g'risida"gi Qonuni.
7. O'zbekiston Respublikasining 2006 yil 20 sentyabrda "Mikrokredit tashkilotlari to'g'risida"gi Qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasining "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi qonuni, 2016 yil 14 sentyabr.
9. O'zbekiston Respublikasining "Garov to'g'risida" gi Qonuni, 1996-yil.
10. O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 12 avgustda "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida" Qonuni.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 5 oktyabrda "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 6-martda "Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-2344 sonli Qarori.
13. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2013 yil 27 dekabrda 2546-son bn ro'yhatdan o'tkazilgan "Kichik tadbirkorlik sub'yektlarini milliy valutada kreditlash to'g'risida"gi Nizomi.

14. “Tijorat banklari tomonidan shaxsiy yordamchi va dehqon xo`jaliklariga chorvachilikni rivojlantirish uchun imtiyozli mikro kreditlar berish tartibi to`g`risida” Markaziy bank Qarori, 2006-yil, 8-aprel, №636.

15. “Tijorat banklari tomonidan Imtiyozli kredit berish maxsus jamg`armasini shakllantirish tartibi to`g`risida”gi Nizom.

## **II. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari va ma`ruzalari**

16. Karimov I.A. “Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to`g`risida”. – Toshkent: O`zbekiston, 2011 yil. – 516 bet.

17. “O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil yakunlari va 2017-yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan ma`ruzasi”. 2017-yil 18-yanvar.

18. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O`zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.

19. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat`iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo`lishi kerak. – Toshkent: “O`zbekiston” NMIU, 2017. – 104 b.

20. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Tadbirkorlik va ishbilarmonlar harakati-O`zbekiston Liberal-demokratik partiyasining 8-syezdidagi “Demokratik islohotlarni izchil davom ettirish, xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot darajasini yaratish – barqaror taraqqiyot kafolatidir” mavzusida

21. O`zbekiston Respublikasi Shavkat Mirziyoyevning 7-fevral 2017-yildagi PF-4947-sonli “O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha Harakatlar strategiyasi to`g`risida”gi Farmoni

## **III. Darslik va o`quv adabiyotlari**

22. Azizov U. Karaliyev T. va boshqalar “Bank ishi”. Darslik,” Fan va texnologiya" Toshkent -2016 .

23. Yo.Abdullayev, T. Qoraliyev, Sh. Toshmurodov, X. Abdullayeva “Bank ishi” darslik. –T.: “Iqtisod-Moliya”, 2009-yil. 149 bet.

24. Abdullayeva Sh. Z “Pul, kredit va banklar”.darslik –T.: “Iqtisod-Moliya” , 2007-yil. 322 bet.

25. Abdullaeva. Sh.Z. Bank risklari va kreditlash. T., «Moliya», 2002-yil.

26. Вахабов А.В. Международные валютно-кредитные и финансовые отношения. В 2-х т. – Ташкент: Университет, 2003. – 538 с.

27. Tadjibayeva D.A. Muminov I.O. Mikromoliyalash:mikrokredit tashkilotlari uchun qo'llanma. Toshkent. Moliya -2009. 13-b.

28. Жумаев Н.Х., Кудайбергенов Ж.Ш. Международные финансовые отношения. Валютный курс и пути их регулирования. –Ташкент: Iqtisod-Moliya, 2006.

29. Лаврушин О.И. Управление деятельностью коммерческого банка.- М.:ЮРИСТЪ, 2003.- С. 228.с.

30. “Bankovskiy menejment” darslik. M.: “Knorus” 2009-yil. 207 bet. O.I. Lavrushin.

31. Носкова И.Я. Валютные и финансовые операции. – М.:ЮНИТИ, 1998. – С.46.

#### **IV. Davriy nashrlar (gazeta va jurnallar)**

32. O'zbekiston Respublikasi “Ahbor-Reyting” reyting agentligi yillik hisobot ma'lumotlari.

33. O'zbekiston Respublikasi ATIB “Ipoteka bank” yillik moliyaviy hisobotlari.

34. O'zbekiston Respublikasi ATIB “Ipoteka bank” yillik moliyaviy hisobotlari.

#### **IV. Internet saytlari**

35. [www.uba.uz](http://www.uba.uz)- O'zbekiston Banklari Assotsiatsiyasi rasmiy sayti.

36. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)- O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to'plami.

37. [www.stat.uz](http://www.stat.uz).-Respublikasi Statistika qo'mitasining rasmiy sayti.

38. [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz)--O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy sayti.

39. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)- O'zbekiston Respublikasi hukumati portal.
40. [www.Ahbor.uz](http://www.Ahbor.uz)- Ahbor reyting reyting agentligi rasmiy sayti.
41. [www.bankir.uz](http://www.bankir.uz)-Bank axborotlari portal.
42. [www.investopedia.com](http://www.investopedia.com)-Iqtisodchilarni malakasini oshirish bo'yicha maxsus sayt.
43. [www.Ipotekabank.uz](http://www.Ipotekabank.uz) -"Ipoteka-bank" ATIBning yillik hisobotlar.
44. [www.Mikrokreditbank.uz](http://www.Mikrokreditbank.uz)-Mikrokreditbank ATB sayti